

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

Abdualimov Umid

**OTTON BUYUK VA MUQADDAS RIM
IMPERIYASI MANBALARDA**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar: dots Hoshimova M.M.

SAMARQAND - 2012

MUNDARIJA

KIRISH	3-6 betlar
I BOB. MUQADDAS RIM IMPERIYASI SIYOSIY TARIXINING VIDUKIND KORVEYSKIYNING “SAKSLAR TARIXI” ASARIDA YORITILISHI	
I.1. Muqaddas Rim imperiyasi tashkil topish negizlari	7-16 betlar
I.2. Otton I ning Muqaddas Rim imperiyasini tashkil etishi	17-27 betlar
II BOB. MUQADDAS RIM IMPERIYASI TARIXINING LIUTPRAND KREMONSKIY VA ROSVITA ASARLARIDA AKS ETTIRILISHI	
II.1. Liutprand Kremonskiyning asari manba sifatida	28-37 betlar
II.2. Rosvita va uning “Otton Buyuk haqidagi doston”i	38-42 betlar
III BOB. OTTON III DAVRIDA MUQADDAS RIM IMPERIYASI AHVOLI	
III.1. V. Gizebrextning “Nemis imperatorlari davri tarixi” asarida cherkov va davlat islohotlari	43-55 betlar
III.2. Titmar “Yilnoma”sida Otton III davri	56-60 betlar
XULOSA	61-62 betlar
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	63-64 betlar

Kirish

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, uning turli jabhalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayondan tashqi siyosat sohasi ham mustasno emas.

O'zbekiston Respublikasi dunyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni o'rnatish davomida mazkur davlatlar tarixini, xususan tashqi siyosat va diplomatiyasini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolotlari" kitobida dunyo mamlakatlari bilan tinch-totuv yashash va hamkorlik qilishning ahamiyati xususida to'xtalib, shunday yozadi: "Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So'nggi vaqtlarda jahonda yuz bergan, dunyoning jug'rofiy- siyosiy tuzilishini xaritasini tubdan yangilagan o'zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to'g'ri baho berish juda muhim"¹.

Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlarida hozirgi dunyoning murakkab va turli xilligi, unda turli madaniyatlar yonma-yon yashashi, dunyo mamlakatlari bilan mustahkam aloqalar o'rnatishda keltirib o'tilgan omillar nechog'lik muhim ekanligi ilgari surilgan. Shu munosabat bilan har bir davlat tarixiga hurmat nuqtai-nazaridan, uni chuqur har tomonlama tanqidiy yondoshgan holda o'rganish biz yosh tarixchilar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

X asr Yevropa tarixida asosiy o'rin egallab, uning siyosiy xaritasi shakllanishida muhim davr hisoblanadi. X asr va XI asr boshlarida Yevropa siyosiy xaritasida Germaniya davlati tarixida chuqur iz qoldirgan Muqaddas Rim imperiyasi tashkil topdi va o'z taraqqiyot yo'lini davom ettirdi. Bunday dabdabali nom olgan imperiyaning tashkil topishida Saksoniya gersogligi boshida turgan Genrix I (919-936) va Otton I (936-973) larning xizmatlari beqiyosdir. X - asrda Germaniya davlati ko'plab qo'shni davlatlar bilan (mas.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolotlari T:O'zbekiston. 1997.

Fransiya) tashqi siyosatda raqobatchilik qilib, to'liq va kuchli harbiy munosabatlar o'rnatdi. Shunday ko'rinishda Germaniya davlatining ichki siyosiy birlashuvi uning harbiy ustunligini ta'minladi.

Ushbu davr Germaniya tarixini asosli o'rganish maqsadida o'sha davr solnomachilari tomonidan yozilgan manbalarga murojaat qilish o'rinlidir. Aynan biz yoritmoqchi bo'lgan mavzuni har tomonlama tadqiq qilish maqsadida bir qancha tarixiy manbalardan foydalandik. Bitiruv malakaviy ishni keng yoritish maqsadida uni uch bobga bo'ldik va shu boblar asosida_ mavzuni yetarlicha tahlil etishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobini yoritishda Vidukindning “Деяния саксов” (“Sakslar tarixi”) yilnomasidan foydalanildi. Bu asar muallifi Vidukind o'sha davrning yetuk solnomachisi va tarixchisi bo'lib maydonga chiqadi. Vidukind Korvey monastrining monaxi bo'lib, aynan xristianlik ta'limoti qaror topayotgan davrda yashagan. Ushbu davrda qator cherkov vakillari qatorida Vidukind ham hukmron sinf yoki sulola manfaatlarini aks ettiruvchi, u yoki bu sabablarga ko'ra ularning himoyachisi va da'vatkori bo'lib chiqadi. Uning mafkuraviy qarashlarida suveren ilk feodal nemis davlatining tashkil topishi va siyosiy taraqqiyoti singdirilgan. Aynan shu nuqtai nazaridan Vidukind Korveyskiyning “Sakslar tarixi” yilnomasi katta qiziqishga egadir.

“Деяния саксов” hajmi bo'yicha uch kitobdan iborat bo'lib, uning asosiy qahramonlari Saksoniya sulolasining ikki vakili-Genrix I va Otton I lar chiqadi. Kitob Otton I ning qizi Matildaga bag'ishlanadi. Yilnoma 968-yilgacha bo'lgan voqealarni qamrab oladi. Muallif voqealarni yoritish jarayonida sanalarga umuman etibor qaratmaydi. Uning siyosiy qarashlari markazida Rim va Papaga qaram bo'lmagan sakson hukmdorlari hokimiyatining imperiya konsepsiyasi turadi.

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobini yaratishda o'sha davr voqealari zamondoshlari va solnomachilari hisoblangan Liutprand Kremonskiy va Rosvitalarning asarlaridan foydalanildi.

Liutprand Kremonskiy asarlaridan mazmuni va hajmi bo'yicha eng ahamiyatlisi olti kitobdan iborat "Антоподосис или Воздаяния" ("Ajr") asaridir. Muallif bu asarda Germaniya, Italiya va Burgundiyada kechgan siyosiy voqealarning 949-yilgacha bo'lgan tarixini yozib qoldirdi. Asar juda subyektivligi bilan ajralib turadi. Shunday bo'lsada qimmatli manba sifatida qadrlanadi. Luitprand bu asarning uzviy davomi sifatida "О деяниях Оттона" ("Otton tarixi") asarini yozdi. Bu asar 22 bobdan tashkil topgan bo'lib, 960-964-yillarda Ottonning Italiya yurishlari va Papaga qarshi harakatlariga bag'ishlangan. Asar xolisona yoritilgan.

Ushbu bobga Rosvitaning "Панегиреке Оттон Великого" asari kiritilgan. Ushbu asar Otton II ning iltimosi bilan yozilgan bo'lib, uning juda katta – 953-yildan 962-yilgacha bo'lgan qismi yo'qolgan. Ushbu asarning faqat 949-952-yillarni qamrab olgan qismidan foydalandik. Bu asar ushbu davrni yoritishda ishonchli manbadir.

Uchinchi bobda OttonIning nevarasi OttonIII davriga ko'proq etibor qaratildi. Bu imperator davrini yoritishda Merzeburglik Titmar va XIX asr yirik nemis tarixchisi Vilgelm Gizebrextlarning asarlaridan foydalanildi.

O'zining ahamiyati bo'yicha qimmatli manbalardan biri bo'lgan Titmarning "Хроника" si nafaqat Otton III davrini, balki, Genrix I va Otton I davrini yoritib berishga hizmat qiladi. Uning sakkiz kitobdan iborat yilnomasining dastlabki ikki kitobida Konrad I, Genrix I va Otton I (911-973) larning qisqacha tarixiy davri ifoda etilib, muallif bunda Vidukindning asari qisqartirilib ko'chiradi. Titmarning to'rtinchi kitobi o'z davriga yaqinlashadi hamda muallif voqealarni butun tafsilotlari bilan yozishni boshlaydi va yilnomaning tarixiy manba sifatida ahamiyati oshadi.

Vilgelm Gizebrextning uch tomdan iborat "История времени немецких императоров" asari uning asarlari ichida birinchi o'rinni egallaydi. Bu asarning birinchi tomi Germaniyaning qadimgi davrlaridan X asr boshlarigacha, keyingi tomida Otton va Genrix davrlari butun tafsiloti bilan

gavdalanadi. Gizebrextning bu asari XIX asrning eng yaxshi tarixiy tanqidiy asarlaridan biri hisoblanadi.

I.Bob. Muqaddas Rim imperiyasi siyosiy tarixining Vidukind

Korveyskiyning “Sakslar tarixi” asarida yoritilishi.

1.1.Muqaddas Rim imperiyasi tashkil topish negizlari.

“Sakslar tarixi” xronikasi muallifi Vidukind yangi Korvey monastirining monaxi bo’lib, ilk nemis feodal davlati shakllanishi boshida turadi. U o’z xronikasini X-asrning 50-70-yillar boshida yozgan bo’lib, Buyuk Karlning Franklar imperiyasi vorislaridan biri hisoblangan Sharqiy Frank qirolligi asosida yangi davlat shakllanishi bilan bog’liqlikdagi yirik voqealar solnomachisi va zamondoshi bo’lgan.²

X-asr Yevropa tarixida asosiy o’rinni egallaydi: U Yevropa siyosiy xaritasi shakllanishida hal qiluvchi bosqich, hamda uning hududlarida feodal siyosiy ta’lumot tarqalish davri hisoblanadi. Aynan X-asr va XI-asr boshlarida Yevropa siyosiy tizimi jihatlarini shakllandi va davlat tuzilishi tarixiy sahnasiga qit’a tarixida katta rol o’ynagan davlatlar chiqishdi. Yevropaning markazida Saksoniya gersogligi boshchiligidagi ilk feodal nemis davlati shakllandi.

X-asr feodal siyosiy ta’limotlar tarqalishi va shakllanishi nuqtai nazaridan eng muhim ahamiyatga ega bo’ldi: bu davrda xristianlik (Rim yoki grek rusumlarida) tarqaldi va qaror topdi. Xristian ta’lumoti feodallar hokimiyati va ularning siyosiy tashkilotlarida aks etdi va qaror topdi. Xristianlikning rasmiy xizmatchilari bilan bir qatorda cherkov vakillari davlatga monarx hokimiyatiga, bu davrda bildirilgan cherkov va davlat o’zaro munosabatlari masalasiga qarashlari, shu qatorda o’z xizmat va ijtimoiy holatidan (diniy yoki dunyoviy) mustaqil tarzda hukmron sinf yoki sulola manfaatlarini aks ettiruvchi u yoki bu sabablarga ko’ra ularning himoyachilari ba da’vatkorlari bo’lib chiqishdi. Bu mafkurachilar qarashlarida suveren ilk feodal davlatining tashkil topishi va siyosiy taraqqiyoti singdirilgan. Aynan shu nuqtai nazardan Vidukind Korveyskiyning “Sakslar faoliyati” katta qiziqishga egadir.

² Видукинд Корвейский “Деяния саксов”. Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 6

Bu asar muallifi haqida ishonchli ma'lumotlarni faqat uning asari matnidan olamiz. "Sakslar tarixi"da avtobiografik ma'lumotlar kam, shuningdek ularni qiyoslash ayrim taxminlar uchun asos beradi. Solnomachi o'zining ahamiyatsizligini gapiradi va mashhur yangi Korvey monastrining monaxi sifatida "Xristian Stefan va Vitaning jafokor quyi xizmatchisi" sifatida bizga namoyon bo'ladi. Sakson qabilasi va hukmron sakson sulolasi madhi singdirilgan "Sakslar faoliyati" konteksidan etnik mansubligi va kelib chiqishi bo'yicha muallif saks bo'lgan. Shunday faktdan xulosa chiqarish mumkinki, u abbat Folkmar, Bovo III, Gerbert va Lyudolf davrida yashagan va uning hayoti 917 va 973-yillar orasida kechgan.³ Muallif o'z asarini imperator Ottonning qizi Matildaga bag'ishlaydi. Bu unga hukmron sulola bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga imkoniyat beradi. Uning o'zi aytishicha, masalan Otton I ning ovini kuzatishga kelganligi solnomachining qirol doirasiga aniq yaqinligi haqida guvohlik beradi. Boshqa tomondan, Vidukind shubhasiz, Korvey monastirida qunim topgan davrida bu vaqtda bu yerda monax bo'lib Otton I ni ko'rishi mumkin edi. Ayniqsa shu aniqlik, muallif o'z qissasining bosh qahramoni bilan shaxsan uchrashgan. Bunday ma'lumotlar solnomachining o'zi haqida ham ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar asosida turli taxminlar bildirildi. Qator tarixchilar solnomachining o'z so'zining tom ma'nosiga asoslanib, uni monaxlar qatorida hisoblab uning zamonaviy katta siyosatdan uzoq bo'lgan va uning ma'lumotlari katta ahamiyatga ega emasligini aytadilar. Boshqa tarixchilar esa solnomachining Otton I doirasiga tegishligi haqida ishoraga diqqatni qaratib, uning Otton I xonadoniga mansub deb hisoblaydilar⁴. Vidukindning o'zini esa Otton I ning qizi Matilda bilan qarindoshlik aloqalari bor deb taxmin qilinadi. Ammo Vidukind mashhur sakson monastrida monax bo'lganligi aniq.

³ Видукинд Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М., 1975 стр 23

⁴ Люблинская А.Д. Источниковедения истории средних веков Л 1955 стр 46

“Sakslar ishi” qo’lyozmasining aslini Vidukind o’zi yozgan bo’lib, u saqlanmagan. Hozirda uning oltita ro’yxati ma’lum bo’lib, turli davrlardagi aslining keyingi nusxalari mavjud:

1. Drezden qo’lyozmasi - o’zining joylashuv o’rniga ko’ra nomlangan. U 1200- 1220-yillarda Meysenda tuzilgan.

2. Shtenfeld qo’lyozmasi - o’zining tuzilgan joyi bo’yicha Shtenfeld monastrida (Kyo’ln diosezida) XII-asr o’rtalarida paydo bo’lgan. Hozirgi vaqtda Britaniya muzeyida saqlanadi.

3. Montekasin qo’lyozmasi- Monte-Kasino shahrida topilgan joyi bo’yicha nomlangan. XI-asr oxirida yaratilgan bo’lib, saqlangan ro’yxatlarning ko’proq qadimiysi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Monta-Kosina shahridagi Benedikt abbatligi arxivida saqlanadi.

4. Eberbax qo’lyozmasi- Reyn daryosidagi Reynegau shahrining Eberbax monastrida topilgani uchun shu nom bilan ataladi. Uning yaratilgan vaqti ma’lum emas. Geydelberg teologi Martin Frext tomonidan 1532-yilda chop etilgan nusxasi saqlanib qolgan.

5. Pantaleon qo’lyozmasi-uning birinchi topilgan joyi- Kyoln shahridagi avliyo Pantaleon monastiri nomi bilan atalgan. 1909-yilda London kutubxonasidan topilgan. Hozirgi vaqtda Berlindagi Davlat kutubxonasida saqlanadi.

Pevtinger qo’lyozmasi- uning tuzish tashabbuskori- gumanist Konrad

Pevtinger nomi bo’yicha atalgan. XVI-asrning birinchi yarimida tuzilgan. 1909-yilda Myunxenda topilgan. Hozirgi vaqtda Myunxen shahri kutubxonasida saqlanadi.

“Sakslar tarixi”ning saqlangan qo’lyozmalari matnning umumiy hajmi va ikki bob taxriri- 1- kitob 22 bob va 3- kitob 2 bobi o’rtasida farq mavjud. Bu qo’lyozmalar bilan bog’liqlikda uch taxrir tizimlashtirilgan: A.B.S. A taxriri Drezden qo’lyozmasini ifodalaydi; B taxriri- Shtenfeld, Eberxard va Pevtinger qo’lyozmalarini; S taxriri- Montekosin va Pantaleon qo’lyozmalarini ifodalaydi.

Bizning tasavvurimiz solnomachining “Saks ishlari” tekstini analizi asosida mualliflik ishlari bosqichlari haqida ma’lumot olishga imkon beradi.

Dastlabki matn (asosiy matn, birinchi taxriri) 957-958-yillarda yaratilgan va sakson tarixining 958-yilgacha bo’lgan davrini qamrab oladi va III-kitob 62-bobning asosiy matni tugallanadi. Vidukind Xronika ustidagi ishini 968-yilda davom ettiradi. Keyinchalik bu matnga xususan III-kitobga 63-69-boblar kiritiladi va matnga qo’shimchalar kiritilib, tuzatiladi. 968-yilda qayta ishlangan va to’ldirilgan matn dastlabkisidan nafaqat mundariyasi bo’yicha, balki o’zining asosiy g’oyasi bo’yicha farq qiladi. Muallifning asosiy qahramonlari sifatida Saksoniya sulolasining ikki vakili - Genrix I va Otton I lar chiqishadi. “Saks ishlari” asari 968-yilgacha bo’lgan voqealarni qamrab oladi. Matn imperator Otton I ning qizi Matildaga yo’llanadi. 69-76-boblar 973 yilgacha bo’lgan voqealarni qamrab oladi⁵.

Saksoniya X-asrda ilgari Sharqiy Frank qirolligiga(843-919) kirgan. Sharqiy Reyn yerlari orasida hukmron mavqeini egalladi. Sharqiy Karolinglar qirollik hokimiyatini davlat ichki taraqqiyoti muhim muammolarni hal etish va uni (IX-X asrlar) tashqi hujmlardan himoya qilishga layoqarsizligi va markazdan qochuvchi an’analarning o’sishi frank jamiyatida feodallashuvning qizg’in jarayonini keltirib chiqardi.⁶

Karolinglar sulolasining zaifligi markaziy boshqaruvining inqrozida va gersogliklarning siyosiy ahamiyatini kuchayishida sezildi. Qirol hokimiyati asosiy gersogliklar- Bavariya va Saksoniya bilan kurash olib borishga qurbi yetmadi. Feodallashuv jarayoni hukmron sinf orasida kuchlar nisbatini kuchayishi bilan birga kechdi. O’rta va mayda feodallar qirolidan qudratli gersoglardan himoyalaniшни muvaffaqiyatsizlarcha izladi, qirol hokimiyati hafaqat ularni yirik feodallardan himoya qilishga, balki o’rta va mayda feodallarni asosan qiziqtirgan bosqinchilik urushlarini davom ettirishga ham qodir bo’lmay qoldi. Tashqi siyosatda tashabbusni ham boy berdilar. Hukmron sinf o’rtasidagi ichki ixtiloflar

⁵ Видукинд Корвейский “Деяния саксов”. Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 30

⁶ Видукинд Корвейский “Деяния саксов”. Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 36

asosan X-asr birinchi o'n yilligida kuchaydi, qirol himoyasiga faqat episkopat chiqdi, biroq u ham gersoglar bilan kurashdi⁷.

Feodallashish jarayoni, feodallar pozitsiyasini mustahkamlanishi barshina va boshqa feodal majburiyatlarning o'sishi bilan birga kechdi. X-asr boshlari sinfiy kurash keskinlashishi bilan ifodalandi. Bu davrda Sharqiy Frank qirolligida ijtimoiy va siyosiy qarama-qarshiliklar keskinlashishi bilan bir qatorda, katta tashqi xavfga yuzma-yuz keldi. X-asrda norman xavfi vengr hujumiga almashdi. Sharqiy karolinglar sulolasining so'nggi himoyachisi Konrad I favqulodda choralariga qaramasdan vengrlarga qarshi mudofaani ta'minlay olmadi.

Sharqiy Reyn hududidagi feodal jamiyatning taraqqiyoti markaziy hokimiyatdan davlat ichki rivojining va uning tashqi siyosatida muhim muammolarni hal qilishini talab qildilar. Karolinglar sulolasi bu vazifani bajarishga qodir bo'lmay ular ijtimoiy tayanchdan mahrum bo'ldilar va o'rnini Saksoniya boshchiligidagi yangi davlat tuzilmasiga bo'shatib berdi. Konrad I ning qirollik taxtiga saksoniyaliklarning Lyudolfinglar sulolasi vakili Genrix I (919-936) chiqdi⁸.

Saksoniya davlati asosini Sharqiy Reyn yerlarida yashovchi german tilli to'rtta katta (Frankoniyaliklar, Shvabliklar, saksalar, bavarlar) va ikki kichik (Tyuring ,friz) qabilalari tashkil etadi. Bu yerlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti notekis kechdi. Feodal munosabatlar Saksoniyadagidek Bavariya va Shvabiyada ko'proq rivojlandi. Ulardagi tarixiy an'analar turli xil bo'lgan: agar Frankoniya o'tmishda frank davlatchiligining tub viloyatini tashkil etsa, boshqa gersogliklar esa turli vaqtlarda franklar tomonidan zabt etilgan edi. Etnik farqlar mavjud, yerlar o'z tiliga ega edi. Siyosiy mustaqillik har bir gersoglikda asosiy "huquq" ining mavjud bo'lishida, gersoglar hududida ularning sud va harbiy hokimiyatlarida qabila knyazlarining vorislik huquqlarida aks etdi. Feodal munosabatlar taraqqiyotidagi va tarixiy an'analardagi farq so'ngra siyosiy mustaqillik- bularning

⁷ Люблинская А.Д. Источниковедения истории средних веков Л 1955 стр 49

⁸ Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков М.1972.стр 72

barchasi gersogliklar asosan Frankoniya, Sakslar va Bavarlar gersogliklar chegarasida milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishiga sharoit yaratdi.

Parchalangan Sharqiy Frank qirolligi o'rniga kelgan sharqiy Reyn gersogliklarining birlashuvi o'zida qabila gersogliklari, qabilaviy- yarimdavlat konglomeratini nomoyon qildi. Tashkil topgan yangi davlati yerlarining siyosiy tarixi uchun qolgan gersogliklar ustidan bir gersoglikning gegimoniyasiga asoslangan siyosiy hokimiyat an'anasi xarakterli bo'lgan Sharqiy Frank qirolligi tarkibidagi qabilaviy gersogliklar kirgan davrda unda uzoq vaqt Regensburg shahri boshchiligida Bavariya asosiy rol o'ynagan bo'lsa, IX-asr oxiri X-asr boshlarida bu rol qisqa vaqtga Frankoniyaga o'tdi. Gersogliklarning siyosiy rolining o'zgarishi sezilarli darajada Sharqiy Frank qirolligida iqtisodiy va siyosiy markazning ko'chishi bilan bog'liq edi. Karolinglar so'nggi vakillari hukmronligi davrida Saksoniyani ahamiyati o'sdi. Frankoniyani yetakchi holati bu gersoglikning Saksoniya bilan ittifoqi yordami bilangina amalga oshirish mumkin edi. Bu vaqtda Saksoniya gersogi Konrad davrida asosiy huquqlardan foydalanar edi. X-asrda Sharqiy Frank qirolligi markazi Saksoniyaga ko'chirildi. Hokimiyatning Frank sulolasidan Sakson sulolasiga (Konrad I dan Genrix I ga 919-yili) o'tishi sakslarning frankoniyaliklar yordami bilan amalga oshdi. Genrix I "frank va saks xalqining" qiroli etib saylandi.

Sakson gersogligining sharqiy frank "yarim davlatlari" orasida ko'proq kuchli gersoglikka aylanishi, keyinchalik unga yangi davlatga asosiy rolni o'ynashi siyosiy va ijtimoiy kuchlarning taqsimlanishi va bu miqyosidagi tarixiy taraqqiyotning xususiyatlarini anglatardi. Saksoniyani boshqa Reyn viloyatlaridan (so'nggi gersogliklar) keyin Buyuk Karl bosib olgan bo'lib, binobarin, boshqa sharqiy frank viloyatlari (Bavariya, Shvabiya) bilan taqqoslaganda, sakslar ko'proq mustaqil rivojlanishining uzoq yo'lini bosib o'tganlar. Shunday sharoitlarda bu yerda yetarli darajada xususiy an'ana va etnik o'z-o'zini anglash mustahkamlangan. Bunday jihat Saksoniyani Franklar imperiyasida chegara holatida bo'lishi sakson feodallarining IX va X-asr boshlarida slavyanlarga qarshi

harakatlari qirol hokimiyatini ularga bo'lgan ishonchini oshirib, uning bir qadar nufuzini oshirishga xizmat qilgan.⁹

Feodallashish jarayonining sekinlashgan sharoitlarida ko'proq rivojlangan sharqiy Reyn viloyatlari (Frankoniya, Bavariya) bilan taqqoslaganda sakson feodallari Karolinglar hokimiyatidan bir qator imtiyozlar olib, o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga erishdilar. Ular nafaqat qaram aholi ustidan siyosiy hokimiyatni, balki yepiskop lavozimlaridagi bo'sh o'rinlarni egallash huquqini ham oldilar¹⁰. Saksoniyadagi ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy taraqqiyotini o'ziga xosligi tufayli hukmron qatlamning birdamligi kelib chiqdi va gersog hokimiyatining sekulizatsiya sur'atining kuchaytirish siyosati avj olgan (Bavariya, Shvabiya) boshqa yerlardan farqli ravishda gersog hokimiyati bilan ruhoniylar tabaqasining kelishuvi o'rnatildi.

Saksoniya feodal sinfi birdamligi dehqonlarning feodallarga qarshi harakati bilan muvaffaqiyatli kurashishiga ko'maklashdi. Saksoniya feodallari feodallarga qarshi harakat bilan kurashishdan o'zining ijtimoiy tayanchi- diniy feodallar qatlamini mustahkamlash uchun foydalandi. Ularning g'oyaviy tayanchi- xristian dini kuchaydi. Saksoniyaga muqaddas qoqmurdalarni ko'chirilishi shu jarayonni aks ettirdi. Feodallashuvning sekinlashgan sur'ati shunga xizmat qildiki, X-asrda Saksoniyada boshqa gersogliklardan farqli holda ijtimoiy kuchlarning taqsimlanishi ro'y berdi. Qudratli Lyudolfinglar xonadoning hukmron mavqeyini egallash boshqa gersogliklarda bo'lganidek, kuchli raqobatga duch kelmadi.

Gersoglarning siyosiy qudrati asoslarini bepayon feodal mulklarida joylashgan katta miqdordagi qaram dehqonlar tashkil etgan. Bu mulk kattaligi bo'yicha boshqa feodallar mulkidan ustunlik qilardi. Sharqiy Frank qirolligi tizimida Saksoniyaning muhim holati Lyudolfinglarga Karolinglar qirollik mulklarining katta qismidan o'z foydasiga tortib olishga imkoniyat berdi. Bunga sakson gersogining qizi (malika Liutgard) ning Karolinglar sulolasi vakili Lyudovik kichik bilan nikohi ko'maklashdi. Mulklarning kengayishi

⁹ Видукин Корвейский “Деяния саксов”. Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 39

¹⁰ Хрестоматия памятников феодального государства и права стран Европы / Подред В.М. Корецкого.М.1961стр 89

Saksoniyaning boshqa feodal xonadonlari (Ekbertinlar, Bilunglar) mulki hisobiga ham kechdi.¹¹

Lyudolfinglarning iqtisodiy va siyosiy pozitsiyasi Saksoniya gersogi Otton Porloq davrida salmoqli bo'ldi. Uning o'g'li Genrix I (919-936) o'z sulolasining feodal mulklarini kengaytirishni va mustahkamlashni davom ettirdi. Genrix I ning kuchli feodal Ervinning qizi bilan nikohi tufayli Merzeburgdagi markaz bilan katta vorislikni oldi va bu qal'ani o'z hokimiyatini janubga kengaytirishda asosiy punktga aylantirdi. Uning grafina Matilda bilan nikohi Genrix I ga o'z hokimiyatini Sharqiy Saksoniya hisobiga kengaytirishga imkon berdi. Lyudolfinglar qudrati asosini tashkil etgan Vestfaliya, Tyuringiya va Vezerdaryosi bo'ylaridek keng viloyatlarini qamrab olgan feodal mulklar ularning qudratining asosini yaratib berdi. Lyudolfinglarning Saksoniya va Tyuringiyada kuchli iqtisodiy pozitsiyasi o'rta va mayda feodallar bilan gersog hokimiyati ittifoqini mustahkamladi.

Boshqa ijtimoiy guruhlar (ruhoniylar imtiyozlari, yirik feodallar bilan ittifoqlari) munosabati bo'yicha nozik siyosat va feodallarga qarshi harakatning muvaffaqiyatli bostirilishi Lyudolfinglar uchun ijtimoiy kuchlarining joylashuviga qulay muhit yaratishga ko'maklashdi. Saksoniyaliklarning Lyudolfinglar gersoglik xonadonining ta'siri Sharqiy Frank qirolligi inqirozi sharoitida boshqa sharqiy Reyn gersogliklariga tarqaldi. Bunga bu gersogliklardagi ichki ijtimoiy ixtiloflar, ayrim ijtimoiy guruhlar (Bavariya va Shvabiya ruhoniylari ayrim dunyoviy feodallar guruhi) ning sakson gersogidan madad topish ko'maklashdi. Lyudolfinglar Sharqiy Reyn gersogliklaridagi siyosiy va ijtimoiy ixtiloflardan o'z foydasiga ta'sirini kuchaytirish uchun foydalanishni uddasidan chiqdilar. Saksoniyaliklarning Lyudolfinglar sulolasi Saksoniyaning tabiiy taraqqiyoti kuchiga va siyosiy va ijtimoiy kuchlarning yangi taqsimotiga erishib shunday ko'rinishda ushbu vazifalarni hal etishning real asoslarini yaratdilar.

¹¹ Видукин Корвейский “Деяния саксов”. Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 41

X-asr birinchi yarimida Saksoniya yetakchiligida Sharqiy Reyn gersoglarining birlashuvi ko'rinishida Saksoniya davlati shakllandi. Aynan bu jarayon Vidukindning "Saks ishlari"da to'liq aksini topgan. Bu tarixiy manbaning katta ahamiyatini shu narsa tashkil qiladiki uning boshqa tarixiy ma'lumotlar bilan taqqoslaganda, yangi davlat shakllanishining asosiy bosqichlarini kuzatishimiz mumkin.¹²

X asrning 20-30-yillarida Saksoniyaning gersogliklar ustidan hal qiluvchi ustunligining asoslari va Sakson davlatining katta xalqaro obro'si o'rnatildi. Siyosiy kuchlarning yangi taqsimotidan foydalanib, Genrix I gersoglar harakatini bir qancha vaqtga chegaralashga yoki salmoqli darajada bo'ysundirishga erishdi. Genrix I gersogligi vaqtida yana Mayns arxiepiskopining Tyurengiyadagi mulklarini qo'shib oldi (915) va o'z hokimiyatini Merzeburgga yoydi. Qirol bo'lgach (919), u Shvabiya va Bavariyaga qarshi asosiy zarbani yo'lladi¹³. Qirol etib saylangandan so'ng darhol butun kuchini Shvab gersogiga qaratdi. Vidukind tili bilan aytganda "o'zining barcha shahar va xalqlarini bo'ysundirishga, xususi cherkov munosabatlarida ma'lum huquqlarini o'zi ta'minlashiga" ehtiyoj sezdi. Asosiy raqibi Bavariya bo'lib, uning gersogi hatto qirollik unvoniga da'vo qilib chiqqan edi. Harbiy harakatlar va muzokaralar jarayonida Bavariya gersogidan Bavariyadagi cherkovga huquqlaridan voz kechishga qirolning baholi qudrat vassallik qasamini olishga muvaffaq bo'ldi (931). Bu Vidukindning "Sakslar tarixi"ning birinchi kitobi 27-bobida keltirilgan¹⁴.

Xasrning 30-yillari boshlarida Saksoniyaga sharqiy Reyn gersogliklari-Frankoniya, Shvabiya va Bavariya tobe bo'lishini bildirdilar va bu sharqiy Frank va garbiy Frank qirolliklari uzoq kurash olib borgan Lotaringiya haqidagi masalani hal etishga imkoniyat berdi. Lotaringiyaning Saksoniya davlatiga uzil-kesil qo'shilishi (925) yangi davlatning strategik pozitsiyasini o'zgartirib, G'arbiy Frank

¹² История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. Стр 308

¹³ Видукинд Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 44

¹⁴ Видукинд Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 48

qirolligi ustidan butkul iqtisodiy va siyosiy ustunlikni kafolatladi¹⁵. Lotaringiyaning qo'shib olinishi Saksoniya sulolasining iqtisodiy va siyosiy pozitsiyasini juda ham kuchaytirib, uning g'arbiy chegaralardagi ahvolini barqarorlashtirdi. Ichki birdamlik ro'y berdi; gersoglarga munosabati bo'yicha siyosat kelishuvchanlik bilan o'tkazildi. 926-yilda vafot etgan Shvabiya gersogi o'rniga itotkor Frank grafi tayinlanadi. Qirol hokimiyatining diniy feodallar bilan yaqinlashishi amaliy ittifoq bilan yakunlandi. Bu bilan ruhoniylar Saksoniya sulolasi yordami bilan boshqa gersogliklarda o'z mulkini kengaytirish uchun yordam olib amalda qirol hokimiyatiga bo'ysunishga o'tdilar.

Sakson davlatining iqtisodiy va ichki siyosiy taraqqiyot sharoitlarida katta ichki islohotlar-mudofaa inshootlari va qal'alarining qudratli tarmog'ini yaratish va o'z qo'shinini (sovutli otliqlar) asosiy kuchi hisoblangan sovutli otliq qo'shin yaratish uchun vengerlar bilan vaqtinchalik sulh tuzdi (924)). Bu Sakson qo'shinini vengerlar ustidan Unstrut yonidagi Riadada (933) g'alaba qozonishga imkon berdi. Natijada Saksoniya sulolasining sharqiy Reyn gersogliklari ustidan hukmron holati va Saksoniyaning xalqaro obro'si mustahkamlandi.¹⁶

¹⁵ Степанова В.Е. и Шевеленко А.Я., сост. История средних веков. Хрестоматия. М.1974. Ч.1 (V-XVvv); 2-е изд М.1981 стр 211

¹⁶ Видукинд Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 48

1.2.Otton I ning Muqaddas Rim imperiyasini tashkil etishi.

Mamlakat ichki birlashuvi va Saksoniyaning xalqaro ahamiyati kuchayishidagi yo'nalishini Genrixning vorisi- Otton I (936-972)davom ettirdi. Qirollik toji kiyish marosimi uchun Otton I gersoglar qasami va tartib-qoidalariga rioya qildi. Gersoglardan har biri ma'lum xizmat vazifalarini (marshal,kamerariya va hokozo)bajardilar.Otton I ning qirollikka saylanishi Aaxenda bo'lib o'tdi(936) va "Ottonni hamma kurishi mumkin bo'lgan va hammaga ko'rinarli bo'lgan".BuyukKarl taxtiga chiqishi bilan birga ro'y berdi.Bu Yevropa ishlaridagi ustunlikka Saksoniya da'vosidan dalolat berib,Sakson qirollarining Karolinglar an'anasiga murojatini ko'rsatar edi.Gersoglar huquqiga qat'iy hamla ichki va tashqi siyosat masalalarida ular bilan qirollik hokimiyati o'rtasidagi ixtilof gersoglar isyonini keltirib chiqardi.U to'liq 5-yil(937-942)davom etdi va Vidukind timsolida o'z tarixchisini topdi¹⁷.

Solnomachining ba'zan qarama-qarshi va subyektiv ma'lumotlarini boshqa ma'lumotlar bilan qo'shib yuborishidagi chala tizimlashtirish voqealarining umumiy zaminini qayta tiklash imkonini beradi.Qirolga qarshi kaolitsiyaga Ottonning o'gay akasi Tankmar,tugishgan akasi Genrix,Frankoniya gersogi Eberxard keyinchalik esa Mayns arxiyepiskopi Fridrixlar kiradilar.Gersoglar o'z mustaqilliklarining cheklab qo'yilishdan norozi edilar.Tankmar bu kaolitsiyaga Markgraf Geroga (graf Zegfred vafotidan so'ng)Saksoniyadagi hokimyatni olib berish maqsadi bilan qo'shilgan edi.Genrix davlat boshligi roliga da'vo bilan chiqdi.Fridrix Maynskiy o'z metropoliyasining avvalgi holatini tiklashga urindi.Gersoglarning qirol bilan kurashi muttasil xarakter kasb etib, isyonchilarning vengerlar bilan aloqa o'rnatishga urinishi ahvolni yanada murakkablashtirdi.Isyon davomida Tankmar o'ldirildi,biroq isyonchilarga Gizelbert Lotaringiyskiy qo'shiladi.Vengerlar mag'lubiyatidan so'ng isyonchilar

¹⁷ Видукинд Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 42

garbiy Frank qirol bilan ittifoqqa kirdi. qo'zg'olonchilar bilan kurash Otton I bilan Lyudovik IV urushiga o'sib chiqdi, biroq chekinishga majbur bo'ldilar. Haqiqiy qirol Germaniya Shvabiskiyning hal qiluvchi g'alabasi esa isyonga yakun yasadi: Eberxard va Gizelberd o'ldirildi, Genrix qirol shafqatiga topshirildi.¹⁸

Gersoglar isyonining mag'lubiyati Saksoniyaning ichki va tashqi siyosati uchun katta oqibatga ega bo'ldi. Qirol hokimiyati gersoglar huquqiga hal qiluvchi zarba berib, ularning itoatini ta'minlash uchun yangi vositalarga tayanib, oxir-oqibat hukmron sinf ichki kuchlari taqsimlanishiga olib keldi. Bavariya ustidan hokimiyat kuchaytirildi, uning gersogi esa uni qirol mulkiga berishga majbur bo'ldi. Frankoniya mustaqilligi tugatilib, u bevosita qirolga bo'ysundirildi. Lotaringiya gersogi Reyn Franki Konrad Qizil Otton I vassaliga aylantirildi. Gersoglar itoatkorligini ta'minlash maqsadi bilan qirol sulola bilan gersoglarning to'g'ridan-to'g'ri qarindoshchilik aloqalari o'rnatish tajribasiga tayandi (Konrad Lotaringiskiy Ottonning qiziga uylandi, Bavariya gersogi qirolning akasi Genrix bo'ldi, Shvabiya gersogi qirolning o'g'li Lyudolf bo'ldi)¹⁹.

Qirol feodal muxolifati bilan ko'proq muvaffaqiyatli kurashish uchun sobiq isyonchi, keyinchalik esa uning yordamchisi va ittifoqchisiga aylangan akasi Genrixga Bavariyani berib, unga homiylik qilish siyosatiga o'tdi. Sakson-bavar ittifoqi amalda o'rnatildi. 40-yillarda "yepiskoplar siyosati" shakllana boshlanib, uning mohiyatini cherkov muassasalari va diniy feodallarning asosiy imtiyozlarini taqdim etish kiradi. Shu bilan birgalikda ular qirol hokimiyatining ma'lum talablarini bajarib, uning tayanchiga aylantirildi.

Saksoniya shundan so'ng tashqi siyosatga e'tibor qaratdi. Feodallarning ma'lum guruhlar va sulolalarning o'zini Italiyaga iqtisodiy qiziqishlari ortib, O'rtayer dengizi bilan savdo yo'llarining ahamiyati o'sib borishi va Germaniyadagi "yepiskoplar siyosati"ga papalar sanksiyalarining qirol hokimiyatining o'z ixtiyoriga olishga urinishi bularning barchasi Saksoniyaning

¹⁸ Видукин Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 43

¹⁹ Люблинская А.Д. Источниковедения истории средних веков Л 1955 стр 59

italyan siyosatining feodallashuviga xizmat qildi va Otton I ning Italiyaga yurishga olib keldi(951).

Germaniya qirolining Italiyaga hujumi va imperiya tuzilishini tushunish uchun 3ta omilni hisobga olish kerak:German davlatining ichki ahvoli,Italiya va Rimdagi vaziyat va xalqaro vaziyat.Germaniyada bularning hammasi janubga tashqi siyosiy tajovuzni kuchaytirishga qulay vaziyat tug'dirdi.Qirol hokimiyatining ahvoli mustahkam bo'lib,asosan Lyudolf va uning ittifoqchilarining isyoni bostirilishi va Lexdagi vengerlar ustidan g'alabasi buni yanada tezlashtirdi.Aynan shu davrda ro'y bergan"Lyudolfinglar isyoni"uni ikkinchi o'ringa surib qo'ydi.Bu isyonning tashkilotchilari Konrad Lotaringiskiy va Lyudolf bo'lib,aynan ular "Lyudolfinglar isyoni"nomi ostida ma'lum bo'lgan feodallar chiqishiga boshchilik qildi.(953-954)Vidukind o'z asarida bunga to'xtalib o'tadi.Isyonga Fridrix Maynskiy,keyinchalik esa Bavariya gersogidan noroziligi kuchaygan ayrim bavar feodallari qo'shiladi. Isyonning asosiy o'chog'i Frankoniya bo'ldi. Qirol tomonida Bavariya va Saksoniya qoldi. Fridrix Maynskiy isyonchilar va qirol o'rtasida vositachi bo'lib chiqdi. U isyonchilarning Genrix siyosatidan voz kechishni taxt vorisligiga Lyudolfning kafolatini italyan siyosatidan kechish talabini ilgari surgan muzokaralar o'tkazdi.

Isyon bilan kurash doimiy tus oldi. Otton I Frankoniya, Shvabiya va hatto Bavariya ustidan nazoratni boy berish kabi halokat cho'qqisiga kelib qoldi. Germaniyadagi ichki feodal nizolardan foydalanishga uringan polab slavyanlari harakati va Bavariya, Shvabiya, Frankoniya va Lotaringiyani talagan vengirlar hujumi ahvolni yanada murakkablashtirib yubordi. Saksoniyaning o'zida bir guruh feodallar sharqiy siyosatning faollashtirishni talab qilib chiqishdi. Kuchlar nisbati qirol hokimiyati foydasiga murakkablashdi. Faol sharqiy siyosatni ilgari surgan German Billungni Saksoniya gersogi etib tayinlanishi Saksoniya tomonidanqirol hokimiyati madadini ta'minladi. Otton I ning akasi Brunoning bir vaqtda Kyoln arxyepiskopi va Lotaringiya gersogi etib tayinlanishi (953) hokimiyatning

markazlashuvi va tashqi xavf, feodal muxolifat bilan kurashdagi vositalarni safarbar qilishda Lotaringiyaning muhim roli haqida guvohlik beradi²⁰.

Qirol hokimiyatining ikki frontda-vengrlar va qo'zg'alonchi polab slavyanlariga qarshi kurashi isyon sharoitida Germaniya ichida butun kuch va choralarni safarbar etishni talab etdi. Tashqi xavf Germaniya feodallarini birlashtirib, tarkibiga franklar, shvablar va bavarliklar kirgan vengirlarga qarshi yollanma qo'shin tuzildi. Unga chex o'triyadlari ham qo'shilishdi. Isyonchilar vengirlar bilan kelishishga harakat qilib mahalliy aholining madadidan mahrum bo'ldi va mag'lubiyatga uchradi. O'ng Reyn gersoglarining chexlar bilan qo'shilgan birlashgan qo'shini vengirlarni Augesburg yaqinidagi Lex daryosi bo'yida mag'lubiyatga uchratdi(955). Bu kuchlarni sharqqa tashlashga va polab slavyanlarini mag'lubiyatga uchratishga (955-yil Meklinburg yaqinidagi Rakse daryosi bo'yida) imkon berdi.

50-yillar ikkinchi yarimidan yirik hajmda yepiskoplik siyosati o'tkazilib, dunyoviy feodallarga qarshi ruhoniylarning kuchli muvozanat yaratildi. Davlat lavozimlariga mustaqil ruhoniy shaxslarning tayinlanishi davlat hokimiyatiga kerak bo'lib qoldi. Chunki ular markaziy hokimiyatga ko'proq sodiq edilar. Germaniyadagi yepiskoplar siyosati sharqda keng missiyali siyosatga o'tish uchun papa sanksiyasiga ehtiyoj sezilishi bilan bog'liq holda kechdi²¹.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Italiya Otton I siyosatida va feodallar manfaatlarida kuchli ehtiyojni keltirib chiqardi. Umuman Muqaddas Rim imperiyasini tuzishga olib kelgan Italiya yurishlarining qanday ichki sabablari borligiga to'xtalib o'tamiz. Italiyaga talonchilik yurishlari xristian birligini yaratish va sharqqa qarama-qarshi qo'yish kabi tushintiriladi. German qirollarining Italiya siyosati bosqinchilik, talonchilik ko'rinishini kasb etdi. Otton I ning Italiya ishlariga aralashuvi nemis yepiskoplarini bo'ysundirishni tugallash uchun papa qaramligini ta'minlashga urinishi bo'lgan. Italiya ishlariga aralashuvi sabablar idan biri, bu boy mamlakatdagi zaxiralarni egallashdan tashqari, shubhasiz Lambardiya

²⁰ Видукин Корвейский “Деяния саксов”. Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 45

²¹ Люблинская А.Д. Источниковедения истории средних веков Л 1955 стр 60

qirolining va Rim imperiyasi qirolining tojini olish va Rim boshchiligidagi Italiyani o'z hukmronligiga bo'ysundirish bo'lgan²².

Bu vaqt Rimda Alberik hukmronligi davrida Shimoliy Italiyada "langobard" toji uchun mahalliy va kelgindi feodallar majorosi tugamagan edi. Italiya qiroli Gugo Provanskiy (926-941) tarkibida Shimoliy Italiya, Provans va Burgundiya kirgan yirik davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Burgund qiroli Rudolf II(937) vafotidan so'ng u beva qirolichi Bertega uylanadi o'zining balog'atga yetmagan o'g'li Lotarga unung qizi Adelgeydani olib beradi. Shu yo'l bilan Gugo Burgundiyaning egallashga umid qildi. Bu vaqtda u imperator tojini qo'lga kiritish uchun muvaffaqiyatsiz harakatlarni amalga oshiradi "Langobard" toji uchun kurashga shvab va bavar gersoglari ham qiziqib qoldilar. 926-yilda Burgxard Shvabskiy o'z kuyovi burgund qiroli Rudolf II foydasiga bu tojga erishish uchun harakat qilib, Italiyada halok bo'ldi. Bavariya gersogi Arnulf Italiyadagi toj uchun kurashga bir necha marta aralashib, 934-yilda o'z o'g'li Ebergardni qirollikka saylashga erishdi. Uning Paviyada qolish halokat bilan tugadi. Gugo Bavariya qo'shinini tor-mor etib, raqibini Italiyadan quvib yubordi. Bu voqealarning barchasi german qiroliga tegishli yaqin bo'lgan unung vassallarining undan oldinroq boy o'ljalarni qo'lga kiritish imkoniyati paydo bo'ldi. Sakson tarixchisi Vidukindning fikriga ko'ra, Genrix I Italiya va Rimga toj uchun jo'nashni mo'ljallaydi. Shundan so'ng katta pul evaziga imperatorlik ramzi- "Muqaddas nayza"ni sotib oldi, biroq u to'satdan vafot etadi. Otton I o'z oldiga qo'ygan yetakchi bosqinchilik maqsadlarini boshlashi bilan Italiya va Burgundiya sodir bo'layotgan voqealarga jim qarab turishi mumkin emas edi. Mavjud to'liq bo'lmagan ishonchli ma'lumotlarga qaraganda, u 941-yilda o'z qo'shinini qiroli Gugoga qarshi Italiyaga yuboradi. Taxminan Otton I ning italyan va burgund ishlariga aralashuvi aynan shu vaqtdan boshlangan. 939-yilda boshqa ma'lumotlar bo'yicha 940-yilda qiroli Gugo Burgundiyaning qo'lga kiritishga urinayotgan paytida Otton I vafot etgan Rudolf II ning o'g'li yosh burgund qiroli

²² Видукинд Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 143

Konradni vassallik qasamini ichishga majbur qilib, shunday taxlitda Burgundiya ustidan o'z ustunligini o'rnatadi. 941-yildan Otton I homiyligi ostiga Gugoning raqibi yahudiy markgraf Berengariy qochib o'tadi. Biroq Otton I Berengariyga hech qanday yordam ko'rsatmaydi. Har holda u unga vassallik qasamini ichiradi. German qiroliga Italiya ishlariga aralashib turishi uchun keskin vaziyatni saqlab turish foydali edi.

Uzoq kurashlardan so'ng Berengariy o'z raqibi ustidan g'alaba qozonib, 950-yilda Italiya qirol bo'ldi. Biroq Berengariyning dushmanlari vafot etgan qirol Gugoning vorislari Lotar va Adelgeydani qo'llab-quvvatlaydi. Shunda Berengariy Adelgeydani qo'lga tushirib, qamoqqa tashlaydi. Adelgeydaning do'stlari Otton I ga yordam so'rab murojat qiladi. Bu Italiyaga dastlabki harbiy hujum shu qatorda xususan german qirollarining italyan yurishlari boshlanishi uchun bahona bo'lib xizmat qiladi. Otton I o'zining yetakchi rejalariga ega edi: u yosh bevaga uylanib "Langobard qirolligi" tojini olishi, keyingi harakatlar esa imperator tojini olish va butun Italiyani egallash uchun birinchi qadam bo'lib xizmat qilishi kerak edi. Yirik nemis qo'shini qiyinchiliksiz Paviyani bosib oladi. Berengariy esa qochdi. Otton I o'zini Langobard qirol deb e'lon qiladi(951)²³. Unga asirlikda tutib turilgan Adelgedani olib kelishadi va Paviyada tantanali tarzda qirol to'yi nishonlanadi. Paviya egallangandan so'ng darhol Rimga Otton I ning keyingi maqsadlarini amalga oshirish uchun elchilik yuboriladi. Rim diktatori Alberikka yuborilgan Maynts arxiyepiskopi Fridrix Otton I ning Rimga kelishi haqida shartlashib olishi kerak edi. Rim diktatorining javobi salbiy bo'ldi. Otton I mavjud vaziyatni hisobga olib Rimga yurish qilishga qaror qilmaydi va Germaniyaga ketadi.

Nemislar shimoliy Italiyadan 952-yilda chiqib ketgandan so'ng Berengariy mamlakat ustidan o'z hokimiyatini tiklaydi. Otton I unga qarshi o'z o'g'li Lyudolf qo'mondonligi ostida qo'shin yuboradi, biroq nemislar mag'lubiyatga uchrab Lyudolf halok bo'ladi. Bu vaqtda Berengariy Spolitori bo'y so'ndirishni boshladi, o'g'li Adalbertni Rimni egallash uchun yuboradi. Otton I Italiyadagi voqealarni

²³ Видукинд Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 175

diqqat bilan kuzatdi. Xuddi o'sha payt papa Ioann XII Otton Iga yordam ,haqida murojaat qiladi. Bu juda o'rinli edi. Qachonlardir o'zini nems qirol vassali deb tan olgan Berengariy butun mamlakatni qo'lga olib, Rim oldida ham to'xtamadi. Vizantiya Italiya janubida o'z siyosatini faollashtirib, Salerno va Benevinkiga mustahkam o'rnashib olishga urundi. OttonI Vormsda shoshilinch knyazlarni to'pladi (961); ular Rimga yurush qarorini qo'llab quvvatlaadi. Shu majlisdayoq yosh Otton II taxt vorisi deb e'lon qilindi va darhol Aaxenda toj kiydirildi. Avgustda nemis qo'shinlari Alp osha harakatlanib, jiddiy qarshilikka uchramay Paviyaga kirdi. Berengariy va Adalbert yaxshi mustahkamlangan qal'alarga bekinib oldi. Rimga kirish va toj kiyish haqida papa bilan muzokaralar boshlandi. Eski Karolinglar odati bo'yicha Otton I papaga "Xafsizlik qasami" ni ichdi. Unda shunday deyilgan edi: "Agar men Rimga kirsam Sen (papa) va Rim cherkovibaxti saodati uchun hamma narsani bajarishga vada beraman. Hech qachon papa hayotiga va sog'lig'iga ziyon ,yetgazish, mening hokimyatimda senga qarshi qandaydir g'araz bo'lmasligiga vada beraman. Rim cherkovi mulklaridan menga o'tganlarining hammasini qaytarib beraman. Italiya qirolligi uchun tayinlangan mening noiblarimni avliyo Pyotir yer mulklari yordamchilari va himoyachilari bo'lish uchun ularga qasam ichishga majbur qilaman".

962-yili 31-yanvarda nemislar Rimga kirdilar. 2-fevralda avliyo Pyotir cherkovida papa Ioann XII Otton I boshiga "Rim imperatorlari" tojini kiygazdi. Qirolicha Adilgeydaga ham toj kiydirildi. Papalarning qalbaki shuhrati Otton I va uning atrofida qilarni hayajonga solmadi. "Imperator va Avgust" deb e'lon qilingan Otton I qaytadan papa va Rim aslzodalarini qasam ichishga va qirol Berengariy bilan ittifoqchilikka kirmaslikka vada berishga majbur etdi. Keyinchalik "German millatining Muqaddas Rim imperiyasi" deb dabdabali nom olgan imperiya shu tariqa qaytadan tiklandi.

Rimdagi toj kiyish Sakson sulolasini gersoglarga munosabati bo'yicha bir qancha vaqtga pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib keldi. Shvabiya va Bavariya gersoglari Italiyadagi tayanchidan mahrum bo'ldi. Papa ustidan amalda imperator hokimiyati o'rnatilib, Otton I o'z gramotolarida papalarning universalistik

da'volarni tan olmay qo'ydi. Papa ustidan hokimiyat Magdeburg rejasi va yepiskop siyosatiga papa sanksiyasini ta'minladi. Rimdagi toj kiyish Saksoniya davlatini tashqi pozitsiyasini kuchytirib, amalda unga Yevropaga gegemonlik qilish uchun zamin yaratib berdi²⁴. X asrda Saksoniya uchun muhim iqtisodiy va siyosiy muammo Sala va Elba daryolari bo'lab sharqqa yoyilib ketgan bepayon slavyan dunyosiga unung munosabati bo'ldi.

Saksoniya Frank imperiyasining "qilich va missiya" siyosatining vorislari bo'lgan sharqiy Reyn gersogliklari bosqinchilik sharqiy siyosatining zarbdor kuchiga aylandi. Vorislik sakson feodallarining o'z yerlarini qo'shni xalqlar yerlari hisobiga kengaytirishga urinishi ilk feodal davlat asosini ta'minlab beradi. Yerlarni zabt etish ishlab chiqarish vositalari asoslari singari slavyan jamiyatining bevosita ishlab chiqaruvchilari hisoblangan. Bu esa salmoqli ommani ekispulitatsiya qilish imkoniyatini berardi.

Vidukindning "Sakslar tarixi" X asr sakson-slavyan munosabatlari tarixi bo'yicha boy materiallardan tashkil topgan. Biroq ko'p joylarda muallif voqealar sanasini bermaydi. Ayrim voqealarni qoldirib ketadi va ba'zan qarama-qarshi va chalkash manzarani tasvirlaydi. Voqealarning umumiy zaminini faqat "Sakslar tarixi" dagi voqealarni o'sha vaqtdagi boshqa manba bilan qiyoslash orqali tiklash mumkin.

Genrixning serblarga qarshi yurishi Otton Porloq (vafoti 912)ning sharqiy yurishlarining davomi bo'lib, 921-yilda u mag'lubiyatga uchraydi. Bu vaqtda Genrix vengrlar bilan tinchlik sulhi tuzishi (924) 928-929-yillardagi katta sharqiy yurishga tayyorgarlikka imkon beradi. Asosiy zarba stodoryanlarga berilib, ularning qa'lasini Braniborning olinishi bilan tugallanadi (929) va knyaz Tugomir asirga olindi. 929-yilda dolenchalarning Gana qa'lasini olindi. Shu yili stodoryanlarning ittifoqchisi- Chexiyaga qarshi yurish uyushtirildi. Genrix I Pragani qamal qildi, oxir- oqibat chex knyazi Vatslov taslim bo'ldi va o'lpon to'lash majburiyatini oldi. Lensin shaharchasi yonidagi jang (929) Genrix I ning

²⁴ Видукинд Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 46

sharqiy yurishini tugalladi. Natijada qator polab knyazliklari va Chexiya qaramligi o'rnatilishidan tashqari vengrlarga (933-yil Riada yonidagi jang) va daniyaliklarga (934-yilda Daniya markasi tuzilgan edi) hujum qilishiga imkon berdi. Genrix I davridagi sharqiy siyosat bo'ysundirilgan viloyatlar uchun vassallik va nazorat o'rnatish bilan tugallandi. Nazoratni asosiy „legatlar“ amalga oshiradilar.

Saksoniyaning hujumi ayniqsa, sakson hukmdori almashganda slavyanlarning qattiq va uzoq qarshiligini keltirib chiqardi. 936 – yilda Otton I ga qarshi chex va polyak slavyanlari chiqishdilar. Polyak slavyanlari qo'zg'oloni ko'plab knyazliklarni (rotary, shprevyan, stodaryan, lujichan, slugyanlar) ni qamrab oldi va 936 – yildan 940 – yilgacha davom etdi. Uni bostirishda asosiy rolni Markgraf Gero o'ynadi. Slavyan knyazi Tugomirning sotqinligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 936 – yilda Saksoniyaga qarshi chex knyazi Boleslav chiqdi. Germaniya – chexiya urushi natijasida, 936 – 950 yillar davomida Chexiya amalda mustaqil bo'lib qoldi. Daniyaliklarni bo'ysundirishda Markgraf German Billung va Gamburg-Bremen yepiskopning yordami katta bo'ldi. Natijada, Yutlandiyada 3 ta yepiskoplikka asos solinib, Daniya qiroli Garold Ko'ktish Germaniyaga bo'ysundirildi.

X asr o'rtalaridan slavyanlarga yangi hujum boshlandi. Polab slavyanlari yerida yepiskopliklar (Gavelburg, Branibor) tashkil etildi. 950-yilda Otton I Pragaga yurish uyushtirdi. Natijada Boleslav taslim bo'ldi²⁵. Daniya-obodridlar ittifoqining muvaffaqiyatsizligi va Chexiyaning mag'lubiyati Polab slavyanlarni og'ir ahvolga solib qo'ydi. 50-yillar boshlaridan ular vengrlar faollashuvidan foydalanishga harakat qildi: ularga qarshi Otton I qarshi chiqib slavyan chegarasi ustidan nazoratni German Billungga berdi.

954-yildagi ukrlarning chiqishi Polab slavyanlarining katta qo'zg'oloniga sabab bo'lib xizmat qildi. Qo'zg'olonni bostirishga yo'borilgan Gero gersog Konrad Lotarinskiydan yordam so'rab murojaat qilishga majbur bo'ldi. German Billungga qarshi bu vaqtda Niko va Stoignev boshchiligidagi Polab knyazlari

²⁵ Видукин Корвейский “Деяния саксов”. Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 47

qarshi chiqib unga German Billungga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan Saks zodagonlari Vixman va Ekbertlar qo'shiladi. "Nurli o'lka" qal'asi muvaffaqiyatsiz qamal qilingach, qo'zg'alonchilarga boshchilikni Vixman o'z qo'lga olib Saksoniyaga hujum qildi. German Billungning Kokaritsimiya qal'asi olindi. Biroq polablar hujumi to'xtatib qolindi, bu esa vengrlarni Lexvelt yonida mag'lubiyatga uchratishga yordam berdi (955). Polab slavyanlari yakkalanib qoldilar va Raksiya yonidagi jangda mag'lubiyatga uchraydilar (955). Qo'zg'alon yo'l boshchisi Stoigniv va 700 asir qatl etildi. Lekin Polab slavyanlar harakati davom etdi. Bu esa ularga qarshi 908, 959 va 960 yillarda ekspeditsiya yuborilishiga olib keldi. Buning uchun ketma-ket Geroning lujichanlarga qarshi yurishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi (963) va u sakslar muvaffaqiyatini mustahkamlab, sharqiy siyosatga yanada kengroq o'tishga imkon berdi²⁶.

Otton I ning sharqiy siyosati yangi vazifalarni qo'ydi: Saksoniya davlatiga bo'ysundirilgan slavyan viloyatlarini o'zviy ravishda qo'shib olish ushbu vazifa surasiga kirardi. Bo'ysundirishning yangi ko'rinishini o'rnatishda "marka" tizimi asosiy rol o'ynadi. Bu yerlarda hal qiluvchi rolni ikki markgraf: German Billung va Gerolar o'ynashdi. Bu siyosatning asosiy nuqtasini slavyanlar orasida xristianlikni tarqatish katta ahamiyat kasb etib u yerda Otton I tomonidan avliyo Mavrikiy monastiri bunyod etildi. So'ngra yepiskopliklar tizimi so'ngida Magdeburg arxiyepiskopiligi tashkil etildi (962).

Vidukind- sakson feodallarining sharqiy ekspansiyasi tarafdori va mafkurachisi bolib, asosiy e'tiborini Italiya voqealari soyasida qolgan Saksoniyaning sharqiy siyosatiga e'tibor qaratadi. Solnomachining diqqat markazida- Genrix I (919-936) va Otton I (936-972) faoliyati yotadi. U bunga xristian missiyasi kabi e'tibor qaratmaydi. Unung siyosiy qarashlari markazida Rim va papaga qaram bo'lmagan sakson hukmdorlari hokimiyatining imperiya konsepsiyasi turadi²⁷.

²⁶ Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков М.1972.стр 75

²⁷ Видукинд Корвейский "Деяния саксов". Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М 1975 стр 48-61

E'tibor beradigan jihat shuki, Vidukind mamlakat ichki hayoti va ijtimoiy qarama-qarshiliklar haqida juda kam gapiradi. Hatto juda tasodifiy va yuzaki keltirilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda, Saksoniyaning ichki ijtimoiy "tinchligini" ornatish uchun kuchli qirol hokimiyati kerak ekanligini ta'kidlaydi.

Bizning nazarimizda "Sakslar tarixi" ning mislsiz ahamiyatini shunday tushinishimiz mumkinki, Vidukind voqealarning zamondoshi sifatida obektiv haqiqatni ko'proq muvaffaqiyatli ifodalab berdi. Aynan X asr kuchli qirol hokimiyati boshchiligidagi feodal Sakson davlatining shakllanishi uchun iqtisodiy, siyosiy va tashqi sharoitlar yaratilgan davr hisoblanadi. Bu haqida bugungi Vidukind manbasi guvohlik beradi

II.Bob. Muqaddas Rim imperiyasi tarixining Liutprand Kremonskiy va Rosvita asarlarida aks ettirilishi.

2.1. Liutprand Kremonskiyning asarlari manba sifatida.

X asr tarixchilari ichida Liutprand o'z iste'dodi tasvirlagan voqealarining ahamiyati buyicha muhim o'rinni egallaydi. Liutprand asarlari uning tarjimai xoli uchun ham manba bo'lib hisoblanadi. Ulardan ma'lum bo'lishicha, u taxminan 920 yilda Paviyada aslzoda langobard oilasida dunyoga kelib Qirol Gugoning saroyida ajoyib klassik ta'lim oldi. Keyinchalik lotin va yunon tillarini o'rgangan. Uning otasi saroyda ta'sirli shaxslardan bo'lib Vizantiya imperiyasi bilan qirolning aloqalarini mustaxkamlash uchun hatto o'sha yerga yo'borilgan. 931 yilda Liutprand ajoyib ovozi tufayli saroy kapellasiga taklif qilinadi. Italiyada Berengariy hukmronligi davrida (945 yildan) Liutprand unga shaxsiy kotib bo'lib xizmat qiladi²⁸. Keyinroq Paviya cherkovi diakoni bo'lgan u 949 yilda Konstantinopolga boradi va u yerda yunon tilidan o'z bilimlarini oshiradi. Liutprandning o'z elchilik natijalari va maqsadlari haqida ma'lumot berilmaydi, Biroq uning qaytishi bilan Berengariy o'rtasida kelishmovchilik ro'y beradi. 956 yildayoq Germaniyada siyosiy emigrant sifatida yashay boshlaydi. Otton I unga xayrixoxlik ko'rsatadi. Germaniyada Liutprand xalifa Abduraxmon III ning elchisi, Elveriyalik yepiskop Retsimund bilan ko'rishib uning maslaxati bilan zamonaviy Yevropaning va uning qirollarining tarixini yozishni boshlaydi. U Frankfurtda 958 yildan 962 yilgacha "Antapodosis, yoki Ajr" nomli asarini yozdi. Liutprand Ottonning diplomatiya va siyosiy topshiriqlarini bajardi : 963 yilda qirolning Italiya yurishida Rimdagi sinodda tarjimon sifatida hamroxlik qildi, keyinchalik shuning uchun Kremon yepiskopligi bilan mukofotlandi, 968 yilda Vizantiyaga Otton I ning o'g'li uchun imperator Roman II ning qizi Feofanoga

²⁸ Vostlit. info

unashtirish masalasi bilan Nikifor Fokaga yuborilgan elchilikka boshchilik qiladi²⁹. Otton greklarning janubiy Italiya mulkalarini sep tariqasida uning o'g'liga berilishi kerak deb hisoblardi. Biroq uning umidlari ro'yobga chiqmadi. Nikofor rad javobini berdi va 969 yilda Liutprand ko'tilgan natijalarga erisha olmay Konstantinopoldan qaytib ketadi. O'zining bu safari haqida ikki asar yozdi : Imperatorning Italiya yurishlari haqida "Ottion tarixi" va "Konstantinopolga safar haqida xisobot" asarlaridir. "Konstantinopolga safar haqida xisobot"- Vizantiyaga qarshi qaratilgan, Ottonga xayrixoxlik hususiyati tashviq qilingan asardir. "Ottion" kitobida rasmiy hujjatlar keltirilgan. Liutprandning Vizantiya 3 marotaba borganligida vafot etganligi haqida ma'lumotlar bor.

Liutprand Otton uchun qilgan sayoxatini "Legatio" ("Elchixonona") degan hisobotni tuzdi. Elchixononaning muvaffaqiyatsizligi tufayli yana urush boshlandi, uning izdoshi Ioan Simisxiy tinchlikka rozilik bildirdi. Liutprand ikkinchi marta Konstantinopolga sayoxat qildi. Biroq bu ishonchsizdir. 971 yilda kelinni olib kelishda Vizantiyaga ketishda u vafot etadi. Keyingi yil Kremon yepiskopi Oldebert deb atala boshlangan.

Liutprand asarlaridan mazmuni va hajmi bo'yicha eng ahamiyatlisi 6 kitobdan iborat "Ajr" asari Berengariyga qarshi qaratilgan va zamondoshlari va avlodlari oldida uni qilmishiga yarasha qoralash maqsadiga ega bo'lgan. Biroq bu vazifa bajarilmay qoldi. Tarixni muallif faqat 949 yilgacha yoritdi. U Liutprandning Vizantiyaga safari tasvirida to'xtab qolgan. Liutprand kitobining g'ayritabiiy nomlanish sababini u uch kitobning so'zboshisida tushuntiradi. Aftidan bu uning yunoncha nomi ("Antopodosis") avvaldan bor bo'lmagan , asarga bu nom keyinchalik berilgan. U yevropadagi 881 yildan 949 yilgacha bo'lgan voqialarga bag'ishlangan. Ularning xronologik tartibini muallifning aniq sanalashtirishga yetarli darajada munosabat qaratadi. Dastlabki uch kitob Italiya va Germaniyadagi 887 yildan 931 yilgacha bo'lgan voqialarni qamrab oladi. Asarning ko'proq qimmatli ikkinchi qismida muallif tasvirlagan voqealarning shohidi va

²⁹ Лиутпранд Кременский "Отчёт о путешествии в Константинополь или Посольство" /Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972.стр. 109

uning faol ishtirokchisi sifatida chiqadi. Liutprand bu yerda antik tarixshunoslik talablarini bajaradi va o`zida o`z zamondoshi sakson tarixchisi Vidukinddan foydali farq di. IV kitobda Germaniya va uning qirollari Genrix va Otton haqida ma`lumotlar yig`ilgan bo`lsa, V kitob Italiya va qator boblari Vizantiyaga bag`ishlanadi. Uning asosiy mavzusi Gugo hukmronligi va uning 947 yilgacha to o`limigacha bo`lgan tarixidir. VI kitobda Liutprandning Konstantinopolga safari haqida hikoya qilinadi. Kitob noma`lum sabablarga ko`ra tugallanmay qolgan edi.

“Antopodosis”da tarix tajimai xol bilan birlashib ketgan. Bu asar tarixiy siyosiy arboblarning memuarlarini eslatib uning dushmanlariga qarshi qaratilgan va juda ham subyektivligi bilan ajralib turadi³⁰. Uning bayoni ochiq bir yoqlamadir : Berengariy juda yovuz bo`yoqlar bilan chizilgan bo`lsa aksincha Otton yorqin bo`yoqlar bilan tasvirlandi. Kitobxon unga muallifning Ottonga otashin ehtirom Berengariyga keskin dushmanlik harakatini ochiq ko`radi. “Ajr” ni yozish vaqtida Liutprand og`zaki an`anaga tayanadi. Biroq uning asosiy ko`rinishi shahsiy tassurotlarga tayanib yozilgan. Asarning bayon formasi bir maromda ketmagan : tarixiy hikoya turmushning tasviriy manzarasi, novella va latifalar muloxazalar, sheriylar bilan qiziq mundarija tuzilgan. Bunday xilma-xillik tasodifiy bo`lmagan. Asar so`z boshisida Liutprand kitob nafaqat jiddiy mashg`ulot, balki u kitobxonning xordiq chiqarishiga xon xizmat qilishi kerakligini aytadi. Bu borada u Boitseyga taqlid qilib asarni nasriylar hikoyalarini sheriylar tuzmalari va parchalarini kiritadi. “Otton hayoti” kitobida rasmiylar hujjatlar keltirilgan³¹.

Arnulfning vafotidan keyin, uning o`g`li podsholik qilgan birinchi yili vengerlar katta qo`shin yig`di va marvonlarni mag`lubiyatga uchratdi. Keyin u bigoariylar (bavarlar ) chegarasidan o`tib qasrlarni bo`zib, cherkovlariga o`t qo`yishdi va axolisini qirib tashladi. Qirol Lyudovik Vengrlarning shafqatsiz qilmishlaridan xabar topib o`z odamlarini jangga chaqiradi. Bu yurishdan kim bosh tortsa dorga osilishini aytilib qo`rqitadi. Uning yirik qo`shini shafqatsiz xalqning jangarilariga duch keladi. Vengirlar o`z niyatlariga yetdilar. Lekin ular

³⁰ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096.гг.) Составитель М.Ю.Стасюлевич. 2001 стр 342

³¹ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096.гг.) Составитель М.Ю.Стасюлевич.2001 стр 343

bavarlar, svevlar , franklar va sakslar yerlaridan o`tib duch kelganga qaqshatqich zarba yetkazdi. Bir necha yillar davomida xalq ularga boj to`lashi kerak edi. Qirol Lyudovik Diyeti davrida qahramon Adelbert yashagan. Butun imperiya bilan jang olib borib buyuk qahramonga aylangan, qirol Lyudovik bor kuchi bilan unga qarshi chiqdi. Bu qahramon barcha janglarda jasorat bilan kurash olib bordi. Albert nafaqat harbiy ayyorlikni bilgan, balki uning ustasi bo`lgan. Qirolga Albertning kelishi haqida aytishganda lagerda sarosima va shovqin uyg`ondi. Bu xabardan xursand bo`lgan qirol barcha knyazlarga to`planib sud majlisini ochishni buyuradi. Majlisda u sudyalarga murojaat qiladi : “Biz mish-mishlarga emas, balki o`z tajribamizdan foydalanishimiz bilamizki, oxirgi yitti yil ichida Adelbert tomonida qanchadan- qancha qon to`kilgan, o`z qo`zg`olonlari bilan ko`plab zararlar yetkazgan. Bunday ajoyib jasorat uchun unga qanaqa mukofot berish kerak degan hukmingizni kutaman ”. Qadimgi qirollarning qarorlari asosida yagona hukmga binoan Adelbert ayblanib, boshini tanasidan judo qilishga hukm etilgan. Lekin uni bog`lab qatlga olib ketayotganda u Gattonni ko`rib qolib unga murojaat qiladi : “Agar meni o`ldirmoqchi bo`lsang qasamyodni bo`zgan bo`lasan”. Shunda Gatton : “seni qasrdan sog`-salomat olib chiqib yana qaytarishga va`da bergan edim, ilk bor chiqqanimizda va qaytganimizda seni sog`- salomat asrab qaytargan edim, men o`z so`zimni ustidan chiqdim”, deydi. Gattonning ayyorligini shunchalar kech anglaganini bilib, afsuslar bilan jallodning ortidan boradi. Vengerlar katta qo`shin yig`ib Italiyaga yo`l oladi. Brinta sohillarida ular uylarini qurib olib, mahalliy aholining soni va ahvolidan xabardor bo`lish uchun uch kun izlanishlar olib boradi va shunday xabarni oladi : “aholisi zich joylashgan va bir tarafi quyuq o`rmonzor, ikkinchi tomonidan daryo o`tgan , unda ko`plab shaharlar bo`lib yaxshi mudofaaga ega ”. Vengirlar bu xalqning ko`pligi va mudofaasining mustaxkamligini ko`ri uyga qaytishadi. Butun qish ular o`smirlarni harbiy yurishga, jangovarlik san`atiga o`qitish, qurol aslahalar yasash bilan o`tkazadi. Qishning tugashi bilan venglar yaxshi qurollangan jangovar armiyasi bilan Italiyaga hujum qiladi. Hech qanday to`siqqa uchramasdan Titsina shahriga

yetishadi³². Qirol Berengariy bunday jasoratli hujumdan hayratlangan. Italiyanlar, tuskalar, balsklar, kamerinlar, spolitinlarga ham yozma murojaatnoma, ham nomalar yuborilib hammalari yig`ilib vengrlar qo`shinlaridan ko`p bo`lgan va kuchli armiyani tuzish buyuriladi. Vengrlar oldidagi bunday katta armiyani ko`rib sarosimaga tushishadi. Kurashdan qo`rqishdi qochish uchun esa imkon yo`q edi. Hech qanday yo`l topolmasdan Adua daryosi orqali qochmoqchi bo`lishadi. Shunchalik shoshadiki, ularning ko`pchiligi cho`kib ketishadi. Xristianlar va qochqinlar bir vaqtning o`zida Berenti daryosi yoqasiga kelishadi. Chunki otlar charchagan va vengrlarga qochishga qo`ymagan edi. Ikkala qo`shin uchrashadi. Lekin ularni daryo o`zani ajratib turardi. Vengrlar barcha qurollarini, asirlarini, boyliklarini hatto otlarini berishga, hayotlarini saqlab qolish uchun Italiyaga hujum qilmaslikka va`da berishadi. Buning isboti uchun o`z o`g`illarini ularga topshiradi. Bu vaqtda qirol Lyudovik vafot etib, franklar avlodidan bo`lgan Konrad butun qabila qiroli etib saylanadi³³. Uning davrida eng kuchli knyazlar Bavariyada Arnold, Shvabiyada Burgard, Fransiyada Everard, Lotaringiyada gersog Gezelbertlar edi. Lekin ulardan sakslar va tyuringlar gersogi Genrix ustun edi. Yuqoridagi aytilgan knyazlar Konrad qirolligining ikkinchi yili (913 y) ayniqsa Genrix unga qarshi qo`zg`alon ko`taradi. Lekin Konrad o`z kuchi va aqli bilan ustun kelib, g`olib chiqadi. Qirolligining yettinchi yili esa (918 y) o`zini xudoga yaqinligini seza boshlaydi va hamma knyazlarni yig`ib shunday deydi : “Ko`ryapsizlarki mening kuchim bitganga o`xshaydi, iltimosim hech qachon urushmanglar, tinchlik saqlanglar, Genrixni qirollikka saylanglar, u qattiqqo`lligi, jiddiyligi va donishmandligi bilan ajralib turadi”. Bu qiroлга tegishli bo`lgan barcha narsalarini Genrixga topshirishlarini va faqat unga buysunishlarini knyazlardan so`raydi. Bunday buyruq bergandan keyin u 23 dekabrda vafot etadi. Knyazlar gersog Genrixga Konrad qanday aytgan bo`lsa usha tarzda barcha qirol buyumlarini topshiradilar. Avvaliga Genrix bosh tortadi, lekin keyin rozilik bildiradi. Bu vaqtda Vengriyaga oilasi bilan qochib ketgan Arnold qaytib keladi.

³² История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096.гг.) Составитель М.Ю.Стасюлевич. 2001 стр 280

³³ Лиутпранд Кремонский “Антаподосис или Воздаяние”/Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972.стр 308

Uni bavarlar va sharqiy franklar sharaf bilan ko`tib olishadi. Uni nafaqat ko`tib olishadi, balki qirol tojini ham kiyishga majbur etishdi. Hamma Genrixga buysunayotganini, faqat Arnold taslim bo`lishini istamayotganligini ko`rib ko`p sonli qo`shin yig`adi va Bavariyaga boradi (921 y) lekin Genrix o`zoqni ko`zlab bu jangda ko`p yuqotishlar bo`lishini uylab yurishni to`xtatadi va faqat Arnold bilan yuzma-yuz uchrashishni taklif qiladi. Arnold qirol Genrixning noibi etib tayinlanadi. Butun Bavariyaning yepiskoplari ustidan hukmronlik qiladi³⁴.

³⁴ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096.гг.) Составитель М.Ю.Стасюлевич. 2001 стр 284

Liutprandning “Buyuk imperator Otton ishlari haqida”gi kitobidan (964.y).

1). Italiyada Berengariy va Adelbert hukmronlik qilgan davrda (960.y.) Ioann imperator Ottonga elchi qilib Rim cherkovi ruhoniysi Ioanni yuboradi. Muqaddas Milan cherkovi arxiyepiskopi Valdbert ham imperator Ottonga Rim elchilarining shikoyati bilan murojaat qildi. U Berengariy, Adelbert va Villa (Berengariyning xotini)larning shafqatsizligiga bardosh berolmasligini aytgan. Kamo shahrining yepiskopi Valdo ham uning fikriga qo`shiladi. Ular bilan birgalikda oliy tabaqaga tegishli bo`lgan odamlar ham Italiyaga ketishgan. U Ottondan ya`ni qirol yordam so`raydi³⁵.

2). Bunday ko`z yoshli iltijolardan ta`sirlangan, xudoga sig`inuvchi qirol Otton(I)odatga qarshi Germaniya qirol etib o`g`li Otton II ni tayinlaydi. Yosh bolani u Saksoniyada qoldirib, o`zi qo`shin yig`ib Italiyaga shoshiladi (961.y). Mehribon qirol har bir kishiga o`z mulkini qaytarib beradi va Rimga yo`l oladi.

3). Rimga tantana bilan qabul qilingan Otton zoti oliylari imperator deb e`lon qilinadi va papa Ioannga (962. 2-fevral.) nafaqat o`ziga tegishli narsalarni qaytaribgina qolmay, qimmatbaxo toshlar, oltin, kumushdan iborat buyuk sovg`alarni taqdim etgan. Papa Ioann va shaharning obro`li odamlari muqaddas Pyotrning qimmatbaxo tanasi ustiga na Berengariyga va na Adalbertga yordam ko`rsatmaslikka qasamyod qilishdi. Keyin imperator zudlik bilan Paviyaga qaytdi³⁶.

4). Yuqorida aytilgan papa Ioann imperatorga bergan vadasini unutib, Adalbertni huzuriga chaqirtirib muqaddas imperatorga qarshi yordam berishini so`raydi. Adalbert esa Italiyani tashlab ketadi va Frankoniyaga ketadi. Haqiqatguy papa Ioanning Adalbertga bo`lgan ishonchi qanday paydo bo`lganligini o`ylab hayron qolgan edi. Bu qanchalik haqiqatga yaqinligini aniqlash uchun Rimga o`zining ishonchli odamlarini yo`boradi. Elchilar butun rimliklarning og`zidan

³⁵ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096.гг.) Составитель М.Ю.Стасюлевич. 2001 стр 340

³⁶ Лиутпранд Кремонский "О деяниях Оттона"/Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972.стр 186

nega papa Ioann imperatorni yomon ko`radi, imperator buyuk ilohiy ishlarni sevadi va amalga oshiradi, degan gaplarni eshitgan.

5). Imperator hamma aytilganlarni eshitib, papa xali yosh, yaxshi insonlarning namunasi uning xulqini o`zgartirishi mumkin. Unga “Olampanoh Papa” deb murojaat qilamiz, u ehtimol intizomli bo`lib, yaxshi insonga aylanar. Yaxshi xulqqa ega bo`lib, keyin yomon odatlarini tashlashga majbur bo`ladi, deb ishonishgan.

6). Shu gaplardan keyin imperator Paviyaga kemaga o`tirib Ravennaga keladi, u yerdan Feretrataga junaydi va muqaddas Leon qasrini egallaydi, u yerda esa Berengariy va Villa yashiringan.

7). Undan keyin imperator Landvard va Liutprandni papa elchilari bilan birgalikda Rimga papaning oldidagi o`z oqilaligini isbotlashi uchun yuborilgan. Ularni ko`zatib brogan harbiy noiblar papani yakkama yakka holatda ishontirishga harakat qilishgan. Papaning huzuriga kelgan yepiskoplar Landvard va Liutprandlarni yomon kutib olishgan. Har qanaqa yo`l ko`rilmasin Papa o`zboshimchaligidan qolmadi. Sakkiz kun o`tib Papa yovuz niyatlarida Ioann va Benediktni imperatorning huzuriga yo`boradi. Lekin ularning qaytishigacha Adalbert Fraksinitni qoldirib papaning taklifi bilan Sentulitsillaga keladi. Uni papa tantanali qabul qiladi, va u Rimga qaytadi (963 yil iyul). Rim yepiskoplari va xalqning iltimosiga ko`ra muqaddas Pyotr cherkovida buyuk sobor chaqirilgan, u yerda imperator bilan birgalikda arxiyepiskoplar o`tirgan³⁷.

10). Hamma o`z o`rnini bilganda va tinchlik hukmron bo`lganda, muqaddas imperator quyidagi nutq bilan yig`ilishni boshladi : “Bunday muqaddas soborda o`tirish Papa Ioannga nasib qilgan ekan, nega bundan bosh tortdi buni sizlardan so`raganimni boisi, chunki u sizlarning o`rtalaringizda yashadi va ijod qildi” . Rimliklar papaning sakson tilini tushunmaganliklari uchun imperator Kremonskiy yepiskopi Liutprandga lotin tilida quyidagilarni tushuntirishni topshirdi : “Shaxsiy

³⁷ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096.гг.) Составитель М.Ю.Стасюлевич. 2001 стр 344

tajribalarimizdan bilamizki, amaldor shaxslar hasadgo'ylar bo'xtoniga uchraydi, yaxshi odam zulmga qarshi, zulm esa yaxshi odamdan yiroqdir”.

12). Imperator Otton Papa Ioangga maktub yo'llab, unda nega o'z himoyachilarini, cherkov himoyachisini ko'rishni istamayotganini, shayton uchun ichganini, qimor o'ynab Yupiter, Venera va boshqa yovuz ruhlarni chaqirganini, yomon qilmishlarda ishtirok etgani uchun ayblanishini yozgan³⁸.

13). Ioann maktubni o'qib shunday javob yozgan : “bizgacha yetib keldiki, siz boshqa papani saylamoqchi ekansizlar, agar shunday qilmoqchi bo'lsalaring hammalaringni xudodan o'zoqlashtiraman”.

14). Bu maktub muqaddas soborda o'qib eshittirilganda hamma ruhoniylar va yepiskoplar bu yerda to'planishgan.

15). Elchilar Tibrga kelishganda papa Ioanni ko'rishmagan. U kamon va nayzani olib dalaga ketgan edi. Qayerda ekanliginin hech kim bilmagan. Papani topa olmagan elchilar soborga maktubni olib qaytib kelishgan. Imperator papaning kelishini kutdi va unga qanday harakatlanganligini aytmoqchi edi va imperator uchinchi majlisida ishtirok etgan barcha yepiskoplar, ruhoniylar, din peshvolariga Papa Ioanning Berengariy va Adalbert bilan til biriktirib unga qarshi chiqqanini, muqaddas Pyotr cherkovini uning zulmidan ximoya qilishini so'rab murojaat qilganini aytgan. U bergan va'dasi, qasamyodini bo'zganligida ayblanishini ta'kidlagan. Muqaddas sobor bularning hammasini ko'rib chiqishini va odil hukm chiqarishni iltimos qiladi. Hamma uning iltimosini bir ovozdan tasdiqlaydi. Papa Ioann o'rniga Lev muqaddas Rim cherkovi papasi etib saylanadi. Hamma taqvodorlar unga qasamyod qilishadi.

17). Bularning hammasi bajarilmagandan keyin buyuk imperator Rimga o'z qo'shinlari bilan qolish mumkinligiga ishonib, hammaga vataniga qaytishiga ruxsat berdi. Ioann Italiya aholisini pul bilan sotib olish oson deb o'ylab, hammani imperatorga qarshi chiqish uchun ularga katta xazina va'da qiladi. Rimliklar imperatorga qarshi hujum uyushtiradi. Rimliklarning hujumiga javoban imperator

³⁸ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096.гг.) Составитель М.Ю.Стасюлевич. 2001 стр 345

o`z qo`shinlarini orqaga qaytardi. Jangni to`xtatishga harakat qildi. Papa bilan ishrat qilgan ayollar esa rimliklarni imperatorni va yangi papa Levni o`ldirishga majburlaydi ³⁹.

³⁹ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096.гг.) Составитель М.Ю.Стасюлевич.2001 стр 348

2.2. Rosvita va uning “Otton Buyuk haqidagi doston”i

Rosvita 984-yilgacha sakslar qabilasining qadimgi diniy muassasi Gandersgeym monastrida (Goslar yaqinidagi, Braunshveygda) yashagan. Uning asoschisi Ottonlar urug' boshlig'i, birinchi sakslar gersogi Lyudolf bo'lgan va abbatlikning katta qismi saks qirollariga tegishli bo'lgan. X asr o'rtalarida monastr abbatissasi Otton I ning akasi, Genrix Bavarskiyning qizi Geberg bo'lgan. Uning davrida monastr haqiqiy akademiyaga aylanib, mumtoz adabiyotni jiddiy o'rganish bilan shug'ullanib, u yerda dastlabki teatr dargohi vujudga keldi. Barcha olima ayollar ichida Rosvita o'zining dunyoqarashi va she'riy iqtidori bilan ajralib turgan. U bir qancha diniy mazmundagi poemalar tuzib, diniy misteriya ko'rinishidagi dramalarning yangi tajribasiga asos soldi.

965-yilda o'n yoshli Otton Rosvitaga uning uchun otasi Otton I ning tarixini yozishini iltimos qiladi va u 968-yil boshlarida tugallanadi. Biroq afsuski bu “Otton Buyuk Panegiriki” ning 953-yildan 962-yilgacha bo'lgan katta qismi yo'qolgan⁴⁰.

Uning asari saroy davrasida yozilgan bo'lib, xalq tasviridan uzoq bo'lgan. Rosvitaning yana bir tarixiy asari “Gandersgeym monastiri boshlanishi va asoschilari haqida doston” bo'lib, 919-yilgacha bo'lgan voqealarni qamrab olgan. Unda Ottonning ota-bobolari tarixi yoritilgan. Quyida Rosvitaning asaridan parcha keltiriladi.

⁴⁰ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 336-337.

“Otton Buyuk haqidagi doston”dan.

Tez orada Otton I katta o'g'li Lyudolfning Ida Shvabskiy bilan to'yini (949-yil) nishonlagach, qudratli qirollar urug'idan bo'lgan shafkatli qirol Rudolf II Burgundskiyning qizi buyuk qirolchaga uylandi.

Rudolf ota-bobolarining nufuzidan kelib chiqqan holda qizini ismini Adelaida deb nomladi. U o'z hukmronligi davrida o'zining shaxsiy iqtidorini namoyon etib kuchli aqli bilan ajralib turgan.

Yuqorida eslatilgan Lotar II vafotidan so'ng qirollik xonadoni manfaatlariga qarshi bo'lgan Berengariy II Italiyada yana hokimiyatga keladi. Berengariy bobosi hokimiyatini yo'qotish kabi barcha nafratini g'azabnok yuragida saqladi. U hech qachon unga nafrati bo'lmagan qirolicha Adelaidaning aybsiz boshiga g'azabini sochdi. U nafaqat taxtni egalladi, balki, bu yerda yashirin xazinani aniqlab, bu yerda topilgan oltin, qimmatbaho toshlar va turli xil kamyob ashyolarni, shuningdek qirollik manglayini bezagan chambarakni qo'lga oldi. Qirolchaga esa hech nima qoldirmadi, uning atrofidagi ishonchli mulozimlarini yo'q qildi, barcha yuqori lavozimdagi xizmatkorlarni haydab chiqardi.

Va nihoyat, qirolicha Adelaidani barcha ozodlikdan mahrum etib, yagona hizmatkori bilan, o'ziga bo'ysunuvchi graflaridan biriga topshirib yuboradi. O'z g'amiga botgan Adelaidada ishonchli kishidan yordam kutish umidi so'ngan edi. Bu hol yepiskop Adelgard tomonidan vositachi yuborilgunga qadar davom etdi. Qiyinchilik bilan o'zining qadrli qirolchasi huzuriga kelgan vositachi unga qochishni va o'zining eparxiyasidagi asosiy bosh shaxarning mustahkam devoriga yashirinishni maslahat beradi.

Qirolicha undan hayratga tushadi va bu qaramlikdan qutilishga qaror qiladi. Biroq qirolicha qochishning yo'lini topa olmaydi, hatto tunda ham uning chiqib ketishi uchun imkon beradigan biror eshik bo'lmagan. Unga hizmat qiladiganlar orasida yordam bear oladiganlari yo'q edi, faqat biz yuqorida aytib o'tgan xizmatkor va ruhoniydin boshqa.

Ketidan qolmaydigan o'kinch bilan unga boshidan kechirgan g'am anduhlari haqida so'zlab beradi, u bilan maslahatlashadi, hammasidan so'ng ular birgalikda qirolichaning qochishi uchun choralarni ko'rib, faqat bir yo'l qolganligini: yashirin tarzda yer osti yashirin yo'ldan o'tish va qorong'u tunda qochishni rejalashtiradi. Reja tez orada amalga oshiriladi, albatta mexribon Isoning madadi bilan. Inson tanasini uyqu qamrab olgan vaqtda Adelaida ehtiyotkorlik bilan, o'zini Xudoga topshirib qochadi va tun davomida bu tutqinlikdan ozod bo'lishga ulgiradi.(Adelaida Shimoliy Italiyadagi ko'l bilan bir xil nomlanuvchi Garda qasrida tutqinlikda saqlanayotgan edi). U o'z nozik oyoqlari bardosh berguncha yurdi. (951-yil 20-avgust)⁴¹.

Sharq quyosh nurlarini socha boshlaganda, Adelaida to quyosh yana botib, qorong'u tushguncha va to'g'ri yo'ldan yurishga imkon tug'ilguncha goh g'orga yashirinar, goh o'rmonga yashirinar edi. Bu vaqtda unga qarab turishga masul bo'lgan graf qochoqni topolmaganligidan qo'rqib, ko'pgina yo'ldoshlari bilan uni izlashga tushdi. Barcha harakatlar natijasiz tugagach hech kimdan qirolicha qayerga qochganligining tagiga yeta olmadi⁴². U qirol Berengariyga qirolichaning qochib ketganligini yetkazadi, bu uni g'azabga keltiradi va mamlakatning barcha jangchilarini oyoqqa turg'izadi, ularga hech qayerni qoldirmaslikni va ayniqsa qirolicha yashirinishi mumkin bo'lgan hamma joylarni sinchiklab tekshirishlarini buyuradi. Berengariy qirolicha yashirilib o'tgan barcha yo'llardan o'tgan bo'lsada uni topa olmaydi, bularning barchasi Xudoning marhamati bilan edi.

Qirol charchagan holda ortiga qaytgan vaqtda, hurmatli yepiskop Adelgard yurakdan quvonar edi.

Bizning mamlakatimiz odamlari (nemislar ham bor edi) mehribon qirolicha bilan tanishmaslaridan ilgari, Rimda yurishganlarida hali o'sha vaqtlardagi qirol Otton va keyinroq qirol Avgust Rim Imperiyasida

⁴¹ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 337.

⁴² Vostlit. info

qirolichaga katta e'tibor ko'rsatishardi. Qirolicha o'zining qadrli erini yo'qotgach esa hamma, Kaditning vafotidan so'ng qirollik o'rniga undan munosibrog'i yo'q deb o'ylardi.

Qirolning o'zi ham o'zining shavkatidan zavq olar, uzoq vaqt o'tgach, yuragining tubida Berengariy tomonidan haqoratlanayotgan o'sha yerlik qirolichani o'z nikohiga olishni o'ylar edi. Otton shuningdek, bu odam o'z mamlakatidan quvilganidan so'ng endi qirollikning oldingi ishlari uchun qirolichani qiynoqqa solganligini o'ylaydi. Mana shuning uchun ham Otton Italiya qirolligini o'z hukmronligiga o'tkazish ushun qulay sharoit kutgandi.

Otasining maqsadidan habar topgan o'g'li Lyudolf, ya'ni Ottonning umidi va suyuqlisi, o'z foydasini ko'zlab emas balki, otasining manfaatlarini o'ylab, sirli ravishda o'z oldiga bir necha kishini yig'adi va Italiyaga kirib borib, uning xalqini Ottonning hukmronligi ostida bosh egishini talab qiladi, ishi omadli yakunlangach, g'olibona iziga qaytadi⁴³.

Qiroлга bu haqda odamlarning mish-mishlari yetib kelgach, Otton sevimli o'g'lining xavf-xatar bo'lishiga qaramay xalq ommasiga murojat etish juratidan uni quvonch va o'g'liga nisbatan mehr bilan kutib oldi. O'g'ilning sadoqatli ish tutishi samarasiz qolgani yo'q, Ottonning o'zi bu xalqni qaramog'iga olishga shoshilardi; u bilan ketayotgan qo'shin soni kam emas edi. Buyuk qirollik shavkati bilan yuqori ko'tarilgan Alpdan pastga tushadi. Berengariy buni eshitgach qo'rquvdan qirolning oldiga chiqolmaydi, lekin xavfning oldini olish maqsadida qasr tarafdagi mustahkam, aloxida bir joyga berkinib oladi. Bizning shafkatli qiroл g'urur bilan mamlakatga to'g'ri kirib boradi va Italiya qirolligining poytaxti bo'lmish Paviyani 951-yilning 23-sentyabrida qo'lga kiritadi.

Bu voqea sodir bo'lgach, uning huzuriga eng ko'zga ko'ringan amaldorlar o'zlarini yangi hukmdor homiyligiga topshirish uchun yugurib kelishadi. Otton ularni yahshi kutib oladi va agar ular sodiq va haqqoniy

⁴³ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 338.

hizmat qilishsa ularga xayrixoxlik qilishini vada qildi. Shundan so'ng uning yuragiga go'zal qirolicha Adelaida esga tushadi.; Otton o'zi bilgan go'zal fazilatli qirolichani ko'rishni ho'xlaydi. Yashirin tarzda elchi yuborib, unga butun dunyoni va shirin sevgisini qirolichaga yetkazishini buyruq beradi. Shuningdek u boy shahar Paviyaga zudlik bilan yetib kelishini, bu yerda chekkan azob-uqubatlari o'rniga yuksak xurmat ehtirom kutayotganligini aytadi. Adelaida bunday yaxshi taklifni qabul qiladi va o'z qaramog'idagi xalqning kuzatuvida taklif etilgan joyga boradi. Qirolichaning kelayotganligi chaqirig'i ovozini eshitgan zahoti qiro' o'zining suyukli ukasi Genrixni unga mulozamat ko'rsatib kutib olish uchun kelishini so'raydi va o'zi qirolicha bilan uchrashishga shoshiladi. Genrix qirolichani yuqori izzat ikrom bilan kuzatib keladi. Hammadan ko'proq bir qarashdayoq u qiro'ning o'ziga yoqadi. Shundan so'ng Ottoning vataniga qaytish kerakligi xabari kelganda u o'zining ishonchli o'g'li Lyudolfni yuboradi, Germaniyani Lyudolfdek vakil boshqarishi xavotirsiz edi. Lyudolf otasining so'ziga bosh egib, o'z vataniga qaytadi va boshqaruv ishlarini o'z gardaniga oladi. U juda ehtiyotkorlik va chuqur muloxaza bilan mamlakatni boshqaradi. Shu bilan birga qiro'ning suyukli ukasi Genrix akasiga nisbatan hurmati va ishonchli hizmatkori sifatida Italiyada qolib hizmat qildi. Buning uchun qiro' uni haqiqatda yoqtirib qoldi. Qirolichaga esa gersog akalik mehri bilan bog'lanadi. Qiro' mamlakatda Berengariy davlatni yana qo'lga olishga urinmasligi uchun Paviada Konradning saralangan jangchilarini qoldiradi.

O'zi esa go'zal rafiqasi bilan vataniga qaytadi. Xalq uni quvonchli hayqiriqlar bilan kutib oladi⁴⁴.

⁴⁴ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 339.

III. Bob. Otton III davrida Muqaddas Rim imperiyasi ahvoli. . Gizebrextning “Nemis imperatorlari davri tarixi” asarida cherkov va davlat islohotlari.

Vilgelm Gizebrext Ranke maktabida yetishib chiqqan nemis tarixchisi hamda tadqiqotchisidir. Uning asarlari orasida yetakchi o'rinni uch tomli “История времени немецких императоров” asari egallaydi. Muallif qadimgi davrdan to X asr boshlarigacha bo'lgan german xalqi taqdirining lavhalarini va keyinchalik Otton va Genrixlar davri, xususan X va XI asrlar davrini butun tafsiloti bilan batafsil bayon etadi. Bu asar XIX asr ning eng yaxshi tarixiy tanqidiy asarlari sirasiga kiradi.

Otton III davrida cherkov va davlat islohotlari rejalari haqida.

Otton III ning birinchi rim yurishlari tezlik bilan yakunlanmadi, biroq u muhim natijalarga ega bo'lmasdan qolmadi, aynan Rim yosh imperatorda chuqur taasurot uyg'otdi. Alpning narigi tarafidagi tezda erishgan muvofaqiyatlari uning hayollarini kuchaytirdi va o'z kuchini anglashga, o'z uyi, ya'ni Germaniyada slavyan qabilalari bilan mayda va omadsiz janglarda o'ziga munosib kuch yo'qligini tushinish imkonini berdi. Haqiqatda Otton qanday bo'lganligi yosh, tasirchan va shuhratparast hukmdorga ta'sir etmasdan qolmas edi, Italiyaning barcha joylarida qadimgi imperiya haqidagi xotiralar quloqqa chalinar, ayniqsa u o'ziga o'zi o'sha qadimgi Rim imperatorlarining ohirgi vorisi sifatida qarar edi.

Bunday sharoitda hokimiyatparastlik va izzattalablik harorati Ottonning yuragida yana va yanada kuchayib bormoqda edi, aynan o'sha vaqtda uning qalbida katta kuch bilan aql bovar qilmas narsalar haqida fikr yuritishda fanatik qarashlar yuzaga kelib, uning birinchi alomatlari Alpga qadam tashlashidan ancha oldin boshlangan edi. Italiyada u birinchi bor hokimiyatning barcha ahamiyatini tushundi.

O'sha vaqtda imperator hayotining ahloqiy ta'sirini oshirmoq uchun shu davrda Fransiya va Italiyada joriy etilgan ruhoniylar va cherkov hayotiga oid islohotlar bilan yaqinroq tanishishi zarur edi.

Nemis yerlarida varvarlar ibodat qilishni o'rganishgach, yepiskoplik hukmronligi ichida diniy harakatlar yanada chuqurroq uyg'ona boshlanadi; bu jarayon yuqori ruhoniylardan oldin tarki dunyochilar va monaxlar orasida sodir bo'ldi⁴⁵. Italiya va Fransiyada bu harakat cherkov hukmdorlarining o'zlarini ham tortadi. Germaniyada cherkov islohoti qirol hukmronligi hohishiga qarshi emas, balki unga o'zaro aloqadorlikda amalga oshirilgan edi. Ma'lumki, o'sha vaqtda imperator hokimiyati nemis ruhoniylari g'oyalari bilan hamjihatlikda birlashar, diniy targ'ibotlarning hech qanday to'siqlikka uchramsligiga keng yo'l ochib berar, boshqa tarafdin imperatorlar diniy kuchlardan yangi davlat tashkil etishda foydalanishardi. Shunday sharoitda, Germaniyada cherkov hayotidagi islohot davlatning o'zini ham qurshab oldi; Germaniyada hukmdor va cherkov o'rtasida mustahkam va foydali ittifoq tuzilgan edi.

Fransiya va Burgundiyada ham cherkov hayotida islohotlar sodir bo'lgan edi, lekin umuman boshqa ko'rinishda. Kezib yuradigan monaxlarning reformatsion urinishlari muhim natijalarga ega bo'lmasdan qoldi, Lotaringiya ruhoniyligidan chiqqanlarni Buyuk Otton va Bruno arxiyepiskopi qo'llab-quvvatlashiga qaramay hech qanday samara bermadi, Klyuni monastri g'oyalari yanada chuqurroq tomir otdi. Qaysidir bir Burgundiya grafining o'g'li bo'lmish Berno bu monastrga 910-yilda asos solgan, u fransuz yerida, Burgundiya davlatining eng chegarasida qurilgan. Gersog Vilgelm Akvitanskiy bu monastr joylashgan yerni monaxlarga hadya etib, o'z yorlig'ida qaramlikdan butunlay ozod etdi hamda diniy va dunyoviy nazoratdan xalos qildi va ularni Rimga bevosita bo'ysundirdi. Bunday holda, monastr aslini olganda avliyo Pyotr taxtiga xususiy mulk bo'lib

⁴⁵ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 391.

hadya etildi va unga qaramlik hamda bo'yin egish belgisi sifatida har yili o'n shilling soliq to'lab turish zarur edi. Berno hammasidan avval allaqachon unut bo'lgan Benedikt ustavini o'zining qattiqqo'lligi bilan joriy etishga harakat qildi. Uning qarashlari qoyilmaqom natijalarga erishdi, hatto boshqa monastrlar ham o'z hohishlari bilan unga bo'ysundi va u o'zining o'limi oldidan bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan yettita monastrning boshlig'i bo'lgan edi. Boshlangan bunday omadli ishlarni Odo davom ettirdi, u ikkinchi abbat edi. U asosan Klyuniy monastri uchun qarorlar chiqardi. U o'z qattiqqo'lligi bilan g'arb monastrlarining reformatoriga aylanadi. Uning ustavlariga faqatgina Fransiyaning ko'plab monastrlarigina emas, balki azaldan ustunlikka ega Orlean okrugidagi Flyore abbatligi ham bo'ysunardi, u hatto o'z faoliyatini Italiyaga ham yoygan edi. Rim patriitsiyasi Alberik uni barcha Rim monastrlari boshlig'i etib tayinlaydi.

Monastrlarning eng gullagan davri, to'rtinchi abbat Mayol o'zining 50 yil davom etgan boshqaruvini qabul qilgach boshlanadi. Bunday uzoq boshqaruv davri mobaynida u katta yutuqlarga sazovor bo'ldi. Klyunidagi monaxlar soni uning davrida 177 tagacha oshdi⁴⁶.

Adelbert avliyo Pavl monastrining monaxlaridan biri bo'lib, u ilk bor yosh imperatorning qalbida chuqur taassurot qoldirgan edi. Adelbert, yoki Voytexning otasi Slavnik chex gersogligiga qarindosh bo'lib, u orqali bavariya knyazlik urug'iga, hatto imperatorning o'ziga ham bog'liqlik tarafi bor edi. Slavnik xristian hisoblanardi. 997-yilning 23-aprelida Adelbert qiynoqli o'lim topadi. Bu haqidagi habarni eshitgan imperator yuragidan chuqur qayg'uradi.

Rimga yurishlari chog'ida u fransuz olimi Gerbert bilan tanishadi. Gerbert bu yerda juda kam muddat bo'lishiga qaramasdan, u zamondoshlariga qaraganda o'zining aqlbovar qilmas zehni va bilimi bilan yosh imperatorning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb eta olgan edi. Imperator

⁴⁶ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 392.

Albert kabi uni ham yaqiniga aylantirdi va tez orada o'z huzuriga butunlay chaqirtirib oladi. Gerbert Rimdan Fransiyaga yana bir bor qaytgan bo'lsada, lekin Gugo Kapet (996-yil 24-oktyabr) o'limidan so'ng u Reymsni ham, Fransiyan ham butunlay tark etdi. U yosh qirol Robertning ustози edi, lekin Gerbert undan hech qanday yordam ololmas edi. Bundan tashqari Robert taxtga o'tirgan zahoti Gerbertga qarama-qarshi fikrda bo'lgan va yosh qirolni unga qarshi qo'ygan ayol bilan nikoh quradi. Shunday og'ir ahvolda Reymsni tashlab chiqib ketishga majbur bo'lgan Gerbertning qo'liga maktub keladi⁴⁷.

Xat imperator Otton III dan edi va unda saroyga taklif haqida so'z borgan edi. Otton shunday yozadi: "Biz saroyimizda sizni ko'rishni juda hoxlar edik. Shuningdek sizdek donishmand ahli bilan tanishish imkoniyati bo'lar edi. Qisqa qilib aytganda biz sizga iltimos bilan murojat qilishga qaror qildik, siz bizga o'qitish va yozishdan ta'lim berishni qabul qilasizmi; bundan tashqari siz ishonchli maslahatlaringiz bilan bizga davlat ishlarida ko'maklashardingiz. Biz o'ylaymizki, bizda ilmga nisbatan qarashlarimizni uchqunlantirish mumkin, faqat bunga biz uchun qobiliyatli kishi kerak. Shu bilan birga bizga sirli qadimiy falsafani o'rganishimiz uchun matematikani o'rgating. Mana shularni biz sizdan o'tinib so'raymiz". Imperator xazil tariqasida xatga keyingi sherni yozadi.

Xatda imperatorning ta'linga munosabati va uning ilmga bo'lgan alangasidan guvohlik beradi. Genrix I va Ottonlarning avlodlari o'zlarini sakson yavvoyilari deb atashmagan va o'zlarining yunonlardan kelib chiqqanliklari bilan faxrlanganlar.

Gerbert javobni uzoq kuttirmadi. "Sizning menga ko'rsatayotgan favqulodda takallufingizdan minnaddorman. Biz sizga hizmat qilishdan bosh tortmaymiz, sizning hukmingizdan ulug'roq boshqa narsani bilmaymiz".

Shunday sharoitda, 997-yilning bahorida Gerbert Saksoniyaga, imperator saroyiga yo'l oladi. U slavyanlarga qarshi yangi yurish boshlayotgan Otton

⁴⁷ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 392.

qabulida eng katta izzat-u ikromga ega bo'ladi. O'sha vaqtda imperator Elbadagi Arneburgni mustahkamlayotgan bo'ladi, lekin u Gerbertning kelayotganidan xabar topgach, zudlik bilan mustahkamlash ishlarini Giziler boshqaruviga topshirib, o'zi esa Magdeburgga shoshiladi. Bu yerda u Gerbert bilan birgalikda o'quv ishlari bilan mashg'ul bo'lib ketdi; imperator shahrida o'sha davrning eng mashxur olimlari to'planishdi va saroyda ularning munozaralari bir-birining izidan davom etardi. Otton olimlarga jumboqli savollar topishni taklif etardi. Gerbert o'sha vaqt juda mohirlik bilan quyoshli soat yasaydi, uning yordamida alohida muhim astronomik kuzatuv ishlarini olib borgan va hali ancha vaqtgacha g'ayrioddiy narsa sanalgan. Shunda u mantiqqa doir asar yozishni o'ylab qoladi. Keyinchalik u bu masalada ancha uzoq shug'ullanadi va oxirida o'z asarini shu asar yozilishi haqida g'oya bergan yosh imperatorga bag'ishlaydi. O'sha vaqtda u ilk bora o'zi yashagan qadimgi Rim davri hotiralarini yosh imperator ongiga to'ldirishni boshlaydi. To'satdan Fransiyadan uning qaytib kelmog'i juda zarurligi to'g'risida xabar keladi, agar u o'zining bu yerda yo'qligini davom ettirgudek bo'lsa, Arnulf qayta tiklanishi va ohirgi saylangan yepiskoplar esa o'z lavozimlaridan bo'shatilishlarini aytishadi,- uni qaytarishga hech narsa qo'llashning iloji bo'lmadi va hali arxiyepiskoplikdan voz kechmagan bo'lsada, u qaytish haqidagi barcha takliflarni rad etdi. Gerbert o'z shuuri bilan lazzatlanardi, yosh imperator uning rejalariga to'liq ixtiyoriy hizmat qilar edi, u imperator do'stlari va o'z atrofida qilarni to'ldirayotganidan qoniqardi. Ular o'z ehtiromlari yuzasidan qimmatbaho sovg'alar berishardi. "Siz ajoyib tarzda menga ajoyib Zasbax nomini atadingiz,- Gerbert o'z xatida so'z o'yinidan foydalanib shunday yozadi,- va sizning umrboqiy hukmronligingizga men o'zimning butun umrlik hizmatimni baxshida etaman." (Zasbax- Shvabiyadagi Karolinglar seym uchun tez-tez yig'ilishib turadigan imperator saroyi).

Lekin tez orada Magdeburgda to'plangan olimlar uyushmasi tarqab ketadi. Imperator Otton III Arneburgda Giziler shikastlangandan so'ng

slavyanlarga qarshi urushga otlandi. Slavyanlarni Elbaning chap qirg'ogidan tozalashi kerak edi. Lekin Otton Magdeburgga qaytmadi, ishlar uni Italiyaga borishga majbur etdi. Uning Amakivachchasi, birinchi nemis Papasi, Grigoriy V Rimdan haydalgan edi. Italiyaga Gerbert jo'rligida kelgan Imperator o'z qarindoshini qayta tikladi. Grigoriy V Gerbertni Ravenna yepiskopi etib tayinlab mukofotlaydi. 999-yilda Grigoriy V vafot etgach Otton papalik taxtiga Gerbertni Silvestr II nomi bilan chaqirtiradi.

Fevralda, papa Grigoriy o'lgan vaqtda, imperator Rimda emas edi: u bu vaqtda janubda bo'lib, muqaddas joylarda sayohat qilayotgan edi⁴⁸. Hammasidan oldin u Monte-Kassinoga, so'ng Kapuyu va Benevent orqali mashxur monastrlar bo'lmish Monte-Garganodagi avliyo Mixail monastrini yo'qlab keladi. U bu monastrga yalangoyoq qadam qo'yadi va juda uzoq vaqt davomida bu yerda yashab qoladi. Qaytayotgan vaqtida, mart oyida u yana Beneventga kirib o'tadi, o'sha vaqtlarda u yerdagi avliyo apostol Vorfolameyga ibodat qilib o'tish zarur edi. Imperator bu yerdagi boyliklardan, u tomonidan Rimda, Tibr orolida avliyo Adelbert sharafiga qurilayotgan cherkovni bezatish uchun sotib olishni istaydi. Beneventistlar avliyo apostolning o'rniga Noli yepiskopi bo'lgan avliyo Pavlning chirimay saqlangan murdasini beradi (cherkov uni muqaddas sanaydi). Qaytish yo'lida imperator, o'z ukalari bilan shahardan uncha uzoqlikda bo'lmagan kambag'algina chaylada yashagan avliyo Nilni yo'qlab o'tish maqsadida Gaetga keladi. Qariya Nil imperator kelayotganligidan xabar topgach o'z monaxlari bilan uning huzuriga kutib olishga chiqadi, bu bilan unga nisbatan butun hurmatini nomoyon etadi. Lekin yosh imperator bu ulug' kishiga ta'zim qildi va uni qo'ltiqlab monastrga kuzatib qo'ydi. Mehrob qoshida u bilan birga ibodat qildi. U Nildan o'z monaxlari bilan birgalikda uning yangi

⁴⁸ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 401.

monastriga joylashishini so'raydi va o'zi qurdiradigan monastrdagi eng boy hadyalarni tuhfa etishga vada qiladi. Lekin Ulug' Nil bularning barchasidan voz kechadi. Ketar chog'i imperator o'z takliflarini yana bir bor qaytardi va qo'shimcha qilib; "Xuddi ota o'z farzandidan so'raganidek, sen ham mendan istagan narsangni so'ra va men barcha talabingni amalga oshiraman".- "Men sendan hech narsa so'ramayman,- javob berdi Nil- faqat sening qalbingni qutqarilishidan boshqa: chunki, sen ham boshqalar qatori bir kun kelib o'lishing kerak va qilgan o'z ishlaringga javob berishing zarur". Imperatorning ko'zlarida yosh paydo bo'ladi va u boshidagi tojni olib qariyaning qo'liga tutqazadi Bu yerdan Otton III Rimga qaytdi.

Otton Rimga qaytganidan so'ng ham Xudojo'ylik ishlarini davom ettirdi. O'zining yaqiniga aylanib qolgan, yosh yepiskop Franko bilan avliyo Kliment yaqinida joylashgan bir g'orga sirli tarzda yashirin yo'q bo'lishadi va bu yerda yuz kun muddat davomida qolib, ibodat va tavba-tazarru qiladi. Yozda Papa bilan birgalikda tog'li tevarak atrofga sayr qiladi; iyulda yana bir necha kun Beneventeda vaqt o'tkazadi; shundan so'ng ancha vaqt davomida avliyo Benedikt birinchi bor yorug' olamdan voz kechib, g'orga berkingan Subiako tevaragiga ketadi, Imperator bu g'orda qurilgan monastrdan o'zi yashash uchun joy tanlaydi. Bu yovvoyi, lekin shu bilan birgalikda jozibador bo'lgan bu joy uni o'ziga yanada tortadi va u o'z xotiralarini abadiy muxrlash uchun shu joyda arxangel Mixail va u bilan birgalikda yana avliyo Adelbertlar uchun atalgan cherkov qurishga ahd qiladi.

Shu vaqtdan boshlab Otton o'z unvoniga "apostollar quli" va "Isus Xristosning quli" degan so'zlarni qo'shadi va avvalgidek o'zining tarkidunyochilik harakatlarini davom ettiradi. Bizgacha 1000-yildagi bir necha hujjatlar yetib kelgan va ularda o'z shaxsiyatida imperatorlik va monaxlikni birgalikda uyg'unlashtira olgan bu yosh hukmdorning harakatlari ifodasi aniq yoritilgan. G'o'yoki Otton III ierarxiyaning ko'zi ojiz quroli bo'lib hizmat qilishga yaratilgandek, Papa yordamisiz ham katta omadlarga erishdi,

Grigoriy V kuch qudratga ega bo'lsada uning o'limidan so'ng papa taxti ustidan boshqaruvni qo'lga oldi. Zamondoshlaridan hech qaysi biri Silvestr II ning aqli, dunyoqarashi, donoligining bir qismi bilan ham tenglasha olmasdi. Otton III ning qalbida yana boshqa xil xislatlar bor ediki, bu kuchli ierarxik hukmronlikka ega bo'lishga intilish edi. Uning nigohi ko'proq yer ishlariga qaratilgan edi. Buning isboti sifatida bizning qo'limizda, Otton aynan o'sha vaqtlarda o'zining boshqaruvini kengaytirishdagi rejalari bilan band bo'lganligi va o'zining imperatorlik ahamiyatini oshirishga qaratilgan harakatlari to'g'risidagi dalillar mavjud. U bor kuchi bilan butun dunyo monarxiyasini o'rnatishga urinadi, aniqroq qilib aytganda ohirgi vaqtlarda Rim imperiyasida⁴⁹.

G'arbiy Rim imperiyasida Buyuk Karl va Otton I davrlarida hech qanday ichki mustahkam aloqalarni namoyish etmasdi. Otton II ning rejalari merosiy davlatni birlashtirish edi va bu uning Alpning narigi tarafida yosh olamdan o'tishiga sabab bo'ladi. Shubhasiz aniqki, uning yosh, jo'shqin va shuhratparast o'g'li otasi tomonidan boshlangan ishni davom ettirishi kerak edi. Aslini olganda, Otton III Italiyada ikkinchi bor bo'lganida bu maqsadga erishishni o'ylab qo'ygan edi. Italiya hali ham alohida ajralgan edi, Lombardiya provinsiyasi Rimdan alohida ajralgan holda mavjud edi. Imperator Pavi tomonidan ishlab chiqilgan ediktga ko'ra birinchi marotaba Italiyaga bir butun davlat sifatida qaraladi. Lekin Otton bu bilan cheklanmadi, u Italiya va Germaniya o'rtasidagi tafovutni yo'q qilishni hohlar edi. Bu vazifa unda impratorlik qila boshlagan davrdan boshlab uyg'ongan bo'lishi tabiiy, lekin shu bilan birga bu boy davlat o'z ahamiyatini tan olganida, nemislarga nisbatan o'zlarini ko'proq yunonlar deb hisoblashi, saksonlarga yuqoridan qarashi va o'zlarining barcha o'y hayollarida madaniy rivojlanishda Sharqiy Rim imperiyasiga murojaat etishi nemislar uchun baxtsizlik edi. Otton III o'ylardiki, u hammasidan oldin,

⁴⁹ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 402

birinchi navbatda butun Rim davlati hukmdori va aklarda, kelishuvlarda ancha to'liq titul qo'llay boshlagan edi: ilgarigi oddiy imperatorlik tituli o'rniga "Rimliklar imperatori". Kelib chiqishi yunon, unga berilgan boshqaruv bo'yicha rimlik bo'lgan Otton III ning o'y hayollari Buyuk Karl monarxiyasidan to'xtamadi. G'arbda Rim imperiyasini qayta tiklash - aynan shu imperatorning yagona orzusi edi va bu uning asosiy maqsadi aylanadi⁵⁰.

Kim inson qalbiga shunchalik chuqur kirib borishi mumkinki, uning ko'nglida saqlanayotgan orzu-o'ylarining barcha rivojini kuzatib tura olsa? Biroq hech qanday shubxa yo'qki fransuz Gerbert eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarzda Ottonga Rim imperiyasini qayta tiklash g'oyalarini boshqara olgan. Hech kimning uzoq vaqt davomida Gerbertgacha va undan keyin ham bu darajada Rim qadimiyligi tuyg'usi yurakka chuqur kirib bora olmagan, uning bizgacha yetib kelgan xatlarida, yozuvchining ruhoniylar kiyadigan keng yengli, uzun ustki monaxlik kiyimi o'rniga, qadimiy rimlikdek kiyinib yurishini ko'rish mumkinligi qayd etiladi. Bazida Gerbert o'zi va Ottonga, Aristotel va yangi Aleksandr sifatida qarar edi.

Ottonning Italiyaga yurishlari chog'ida Gerbert uning ajralmas yo'ldoshiga aylanadi. Gerbert imperator qalbini qanday g'oyalar bilan to'ldirganligi uning imperatorga bag'ishlab yozgan asarida ko'rish mumkin. "Men buni yozishimdan maqsad,- deb aytadi u,- Italiya imperatorlik palatasida barcha madaniyat o'lib ketgan deb o'ylamasin. Bu mamlakat o'zlariga kuch-qudratli Rim imperatoriga erishganligiga ishonishadi, lekin u ham adashadi; biz boy va hosildor Italiyaga egamiz, biz jangari Galliya va Germaniya ustidan hukmronlik qilamiz; bizga skiflar jangchilari hizmat qiladi, hammasidan avval esa, biz senga egamiz, o buyuk imperator; sen kelib chiqishingdan yunonlar qoniga daxldor va hammadan kuch-qudratli

⁵⁰ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 403.

yunonsan; sen Rimda merosiy huquq bilan boshqaruvchilik qilmoqdasan va aql hamda gapga chechanlikda yunonlar va rimliklardan ustunroqdirsan”⁵¹.

O'sha vaqtdan boshlab Otton III ning barcha o'y hayollarida Rimning harbiy kuchini qaytadan tiklashga qaratilgan bo'ladi; U Yunon imperiyasidagi barcha tojlarni o'rab olishni va shu bilan birga Buyuk Karlga taqlid qilgan holda, butun dunyo xristian davlatini tiklamoqchi bo'ladi; u chuqurroq kirib borgan bunday qarashlari qanchalik ulug' bo'lishi bilan bir qatorda, shunchalik tushunarsiz va orzuli homhayol edi. Qadimgi Rim senati va uning donishmandligi, triumflar va Trayan hamda Mark Avreliylarning dabdabali g'alablari, Konstantinopolning yarim antik, yarim sharqona hashamatli saroyi – mana shularning barchasi yosh imperatorni sehrlangan, atrofi fanatik o'ylarga tubsiz kirib qolishiga turtki bo'ladi. Shuning uchun uning avliyo joylarga qilgan ziyoratlarini Xudojo'yligidan deb o'ylamaslik kerak; agar unga yaqinroqdan nazar tashlansa bu ishlarning siyosiy ahamiyat kasb etishini ochmasdan iloj yo'q. Monte – Gargonoga diniy maqsaddagi sayohatidan tashqari, imperatorni Kapuyu va Beneventga, uning hukmronligidagi janubiy sarhadlari bo'lmish va hayoti davomida hali biror marta bo'lmagan ikkita eng muhim shaharlarni ko'zdan kechirish maqsadi olib kelgan edi; bundan tashqari ular imperatorni Apulida nimalar sodir bo'layotganini ko'rsatish imkoniyatini yuzaga keltiruvchi qulay sharoit, Yunon imperiyasi chegaralariga yaqinlashtirar edi. Dalillar shuni tasdiqlaydiki imperatorning ziyorat qilishi chog'ida har doim jangchilar nazoratida bo'lgan. Xatto imperator Subiakada jasorat bilan og'ir aybiga iqrор bo'lgan bo'lsada, imperator tezlikda Papa bilan Farsa monastriga boradi, u yerda Gugo va Tusii markgrafi bilan ajoyib majlis o'tkazadi; ularning majlisi o'z ahamiyatiga ega bo'lib, imperatorning o'zi bir xatida, “Respublikaning qayta tiklanishi” haqida aytib o'tadi. Biz u yerda qabul qilingan rejalar va qarorlardan habarimiz yo'q, lekin biz Ottonning Rim respublikasini qayta

⁵¹ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 403.

tiklash deganda nimani ohayol qilganligi va o'z davlatini qurishni qanday o'ylaganligini tahmin qilishimiz mumkin⁵².

Birinchi o'rinda "Oltin Rim" ni yana qaytadan imperiyaning birinchi shahri, imperator poytaxti va butun dunyo markaziga aylantirmoqchi bo'ladi. Imperator Palatin (u ham tantanali holatlarda qo'llanilib turilgan) dagi eski imperatorlik saroyi o'rniga, o'z toji uchun joy tanladi. U Tibrdan ajoyib tarzda baland ko'tarilib turgan Aventinni tanlaydi. Endi Aventin o'zida g'amgin cho'l qiyofasini namoyon qiladi va faqat bir nechta monastlar, keng xarobalar va katta bog'lar bilan qoplanadi: uning ko'chalarida juda kamdankam hollardagina inson zoti yuzini ko'rish mumkin edi; X asrda shaharning eng aholisi ko'p joyi edi; u yerda monastr va cherkov yonlarida mustahkam qasrlar mavjud edi; qachonlardir Albert bu yerda o'z qal'asiga ega bo'lgan va u yerda avliyo Bonifatsiy monastri turar joylashgandi; Otton bu yerni o'zining qarargohiga aylantirdi.

Aslini olganda Bosfordagi imperator qarargohi bilan Aventindagi saroy o'rtasidagi farq deyarli u darajada katta emas edi, lekin Otton u yerda o'zini hashamatga va Sharqiy Rim imperiyasi hukmronligi saroyidagi qadimgi marosimlar o'tkazilgan muassasaga tortdi. U qadimiy va asl nusxa kiyimlarda paydo bo'lar; ba'zida Apokalipsis tasviri tushirilgan plashda; ba'zida esa hayvonlar tasviri tikilgan ko'ylakda nomoyon bo'lar; barchasi, hatto qo'lqoplarigacha qadimiy va qoidaga ko'ra edi. U ovqatini saroy ayonlaridan alohida va farqli tarzda baland stolda istemol qilardi. Uning qabuliga kirish tantanali tarzda amalga oshirilardi: u atrofdagilardan unga nisbatan chuqur iltifot bilan, tantanali va ulug'vor so'zlar bilan olqishlashlarini da'vo qilgan. U bilan suhbatda uni "Barcha imperatorlar imperatori" deya murojat qilishlarini talab qilgan va u o'ziga qadimgi sezarlar odatiga binoan, uning skipetri (saltanat hassasi) ga bo'ysunuvchi xalqlarning nomlaridan tashkil topgan baland titularni beradi; uni

⁵² История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 404

“Saksoniyalik, Rimlik va Italiyalik” deb atashgan va o’zi ham o’zini shu nomlar bilan atagan. Uning atrofini sonsiz saroy, davlat ayonlari va harbiy amaldorlari ommasi o’rab olgan edi. Konstantinopol boshqaruvidagi harbiy amaldorlar ro’yxati Rimda ham joriy etiladi: imperator qo’shini boshlig’i va imperator soqchilari, imperatorlik polkovniklari, aslini olganda umuman mavjud bo’lmagan flotga, flot admirali va boshqalar. Frank qirollaridan kelib chiqqan saroy nomlaridan aksi o’laroq Konstantinopol saroylariga taqlid sifatida saroy nomlari yangisiga o’zgartirildi: imperator saroy ayonlarining nomlari ham o’zgartirildi; kappelanlar lagofetlar deb, kanslerlar esa arxilogofetlar deb o’zgartiriladi. Bir so’z bilan aytganda, Saksoniya saroyi maskaradga tayyorlanar va haqiqatda, barcha bu dabdabalar karnavalning quvnoq kechasi bir zumda tugaganday yo’q bo’ladi.

Imperatorning qilayotgan ishlari rimliklar va hatto unga Silvestr II ni ham qarshi qilib qo’ygan bo’lsada, rimliklar qarshilik ko’rsatishga ojizlik qilar edi, Papa esa oxir-oqibatda imperiya ishlarida papalik uchun ish va joy borligini tushinib yetdi, shuning uchun qo’liga qo’l berib u bilan birga ketishda davom etdi va imperatorni juda katta rejalari bilan zavqlantirdi va u bilan birga o’zi ham zavqlandi.

Albert qiynab o’ldirilgan Polsha Otton III va Sivestr II larning nigohi qadalgan navbatdagi yo’l edi. Qahramonlik shukuhidan yiroq bo’lgan Gersog Boleslav Rimning eng jo’shqin istagini amalga oshishida ko’maklashadigan inson sifatida nomoyon bo’ladi.

Ayni shu vaqtda Adelbert o’lmining yagona guvohlari bo’lmish uning ukasi Gaudensiy va ruhoniylar Benediktlar Rimga qaytib kelishadi va Polshani Rim provinsiyasiga aylantirishdagi harakatlarga qurol sifatida tanlanadi. Papa Gaudensiyi arxiyepiskop qilib tayinlaydi, uning yepiskopligi Polsha cherkovi metropoliyasini kuzatish vazifasini olgan edi. Imperator jadallik bilan Tibr orolidagi Albert cherkovini qurilishini tezlashtirdi, o’zi esa Alp orqali o’tib, Albert qabriga ziyorat qilish va Polshada yangi arxiyepiskoplik tashkil etish uchun tayyorlanadi.

999-yil dekabr oyining o'rtalarida Otton Iso payg'ambarning tug'ilish kunini nishonlash uchun Rimni tashlab Ravennaga yo'l oladi⁵³. Papaning uni Italiyada ushlab qolishga qilgan barcha harakatlari zoye ketadi. Uning qat'iy qilib yozilgan xatiga Otton Italiyaning iqlimiga boshqa chiday olmasligini va Germaniyaga yo'l olishi kerakligi bilan tushuntiradi, lekin shunday bo'lsada bu ayriliqqa qaramay u har doim qalban Papaga yaqin bo'lib qolishini aytada. Otton o'zining o'rinbosari bo'lgan Tussi markgrafi Gugoni italyan knyazlariga boshliq etib ketadi. Papa bo'yin egishga majbur edi va imperator rimlik patriksiy Siasion va boshqa ko'plab rimlik katta amaldorlar va ko'plab kardinallar hamrohligida yo'lga tushadi va 1000-yilning yanvar oyida Alp tomon harakatlanadi.

⁵³ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 405.

3.2. Titmar “Yilnoma”sida Otton III davri.

Merzeburg yepiskopi Titmar yilnomasi sakkiz kitobdan tashkil topgan bo'lib, muallif uni Magdeburg yaqinidagi Bergens monastri abbati Zigfridga murojat qilgan sherli muqaddima bilan boshlaydi.

Bu yilnomaning dastlabki ikki kitobida Konrad I, Genrix va Otton I (911-973-yillar) larning qisqacha tarixiy davri ifoda etilgan; muallif bunda deyarli hech qanday katta ish qilmay, Vidukind asarini qisqartirib ko'chiradi. Xuddi shuningdek, uchinchi kitob ham Otton II (973-983-yillar) davrining qisqacha bayoni. Lekin Titmarning to'rtinchi kitobi o'z davriga yaqinlashadi hamda muallif butun tafsilotlari bilan yozishni boshlaydi va yilnomaning ahamiyati tarixiy manba singari oshadi; bu to'rtinchi kitob o'z ko'lamini jihatidan oldingi uch kitobga teng bo'lib, imperator Roman II ning qizi, yunon malikasi bo'lgan Feofan va Ottonlarning og'li Otton III ning 20 yillik hukmronlik tarixi davrini o'z ichiga oladi. Uchinchi kitobning ohirida muallif Otton II ning Janubiy Italiyada sarasinlarga qarshi oxirgi jangi, uning Tarentida (982-yil) halokatga uchrashi, Veroneda (983-yil) kanyazlar yig'ilishini o'tkazgani, unda imperator Otton II hukmronligiga qarshi qo'zg'alon ko'targanligi uchun Utrexda xibsga olingan jiyani Genrix Kichik Bavarskiyni (Otton I ning ukasi, Genrixning o'gli) kechirganligi haqida yoziladi. Veronidan imperator Rimga yo'l oladi va o'sha yerda 983-yil 7-dekabrda vafot etadi. O'limidan bir necha kun oldin Germaniyada uning uch yoshli o'g'li Ottonga Axenning qiroli sifatida toj kiydiradi. Imperatorning o'limi haqidagi habarni eshitgan Kyolnskiy arxiyepiskopi Varin qo'lidagi voyaga yetmagan qirolni tarbiyalab yetishtirgan kishisi, yaqindagina Utrexdan chiqqan qirolning tog'asi qo'lga topshiradi. Otton III 980-yilda tug'iladi⁵⁴.

⁵⁴ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 373.

To'rtinchi kitob.

984-yilda uchinchi va afsuski Ottonlarning so'ngisining onasi bo'lgan qirolicha Feofaniya Paviaga, beva Adelaida (Otton I ning xotini) ning yoniga yo'l oladi. Uning yuragi murg'ak va yolg'iz farzandini tashlab ketayotganligidan azobda edi. Paviada uni tasalli berib kutib oladi. Shu bilan birga Genrix Bavarskiy yepiskop Pop bilan birgalikda arxiyepiskop Varin qo'lidan qonuniy vasiy sifatida qirolni qabul qilish uchun Kyolnga keladi⁵⁵.

Genrix Magdeburgdan Kvedlinburgga otlandi, bu yerda u kirib kelayotgan bayramni kutib olishga qaror qiladi. U yerda imperiya knyazlarining ko'p sonli yig'ilishi bo'lib o'tadi, lekin o'zlari ishtirok etishni istamagan knyazlar voqealarni jimlik bilan kuzatish uchun o'z vakillarini yuborishadi. Bayram vaqtida Genrix tarafdorlari unga qirolni olqishlagandek murojat qilshadi va uni izzat-ikromlab cherkov gimnlaridan madx etishadi. U yerda gersog Mizeko (Mechislav I, Polshadan), Mistui va Boleslav (Bogemiyadan) hamda boshqa sanoqsiz knyazlar bilan tashrif buyurishadi va ularning barchasi Genrixga o'zlarining hukmdori va qiroli sifatida qasamyod qilishadi. Biroq Xudodan qo'rqib, o'z ishonchiga sodiq turganlar Gesleburgda gersogga qarshi ittifoq tuzishadi⁵⁶. Gersog bu haqida eshitgach, unga sodiq tarafdorlarini muruvvat bilan siylab, ularni qo'yib yuboradi, o'zi esa kuchli otryad bilan birga Verluga, unga qarshi ittifoq tuzganlar kuchini yo'q qilish yoki bo'lmasa ular bilan tinchlikni butunlay tugatish uchun shoshiladi. Ittifoqchilar huzuriga gersog yepiskop Popni qarshilik qilayotganlarni gersog bilan birlashtirish yoki tinchlik sulxi tuzish uchun yuboradi. Yepiskop bor mahorati bilan va qiyinchilikda faqat birgina vada olishgagina erishadi: tinchlik maslahati uchun aniq vaqtda va aniq joy ya'ni Sessen nomi bilan ataluvchi mashxur joyda uchrashishga rozilik bildirishadi. Lekin Gersog Syezdga tashrif buyurishni hohlamaydi, shunday qilib u Bavariyaga o'tlanadi.

⁵⁵ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 374.

⁵⁶ Титмар из Мерзебурга. Хроника. /Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972.стр 99

Yaqinlashib kelayotgan Pasxa bayramini (985-yil) qirol Kvedlinburgda kutib oladi; bunday holatda unga to'rtta gersog hizmat ko'rsatar edi: stolni saroy dasturxonchisi sifatida Genrix (Bavarskiy) idora qilar, Konrad (Frankonskiy) kamerger sifatida uyni boshqarar, Gesil vino saqlanadigan yerto'lani idora qilar va Bengrad (Saksonskiy) qirol othonasini boshqarar edi. Bu yerga o'z drujinasi bilan Boleslav va Mizeko tashrif buyurishadi. Polsha gersogi Mizeko o'zini qirolning ijaradori deb e'lon qiladi va boshqa katta-katta sovg'alar qatori unga tuya hadya etadi va uning ikki yurishida ishtirok etadi⁵⁶.

Otton III slavyanlarga qarshi to'xtamasdan yurish qiladi va ularning sharqiy hududlarini o'ziga bo'ysundirdi.

989-yilda osmonda dumli yulduz paydo bo'ldi; u og'ir yo'qotishdan darak beradi.

Qirol balog'atga yetgach Merzenburgdagi cherkovning qulashidan afsuslanadi va uni qayta tiklashni o'ylaydi; bu maqsadi uni butun umr hayolini tark etmaydi. 996-yil Isoning Tug'ilish bayramida qirol Kyolnda edi: bu yerda tinchlik va hotirjamlikni o'rnatib, u Italiyaga anchadan beri niyat qilgan yurish boshlashni o'ylab qo'ydi va Pasxani Paviada nishonladi⁵⁷. Bu yerdan katta tantana bilan Rimga yo'l oldi va bu yerda Papa Ionn (XV) ning o'limidan sal avval uning o'rniga gersog Otton (Karintiyskiy) ning o'g'li, ya'ni jiyani Brunoni tayinlaydi. Otton III imperiyani boshqarishda o'z qarashiga ko'ra idora etardi.

Yozning boshida Rimga yepiskop Adelbert tashrif buyuradi. Cho'qintirilish chog'ida u Voytexga o'xshash nomini oladi, Magdeburg yepiskopi xristianlardagi hushbo'y miro (moy) surtish marosimida unga Adelbert nomini beradi. U yerda yepiskop Otrixadan ilmiy ta'lim oladi.

Qirol (997-yil) Rimni qoldirib, yana bizning mamlakatimizga tashrif buyurdi. Slavyanlarning qo'zg'alon ko'targanliklarini eshitgach, u harbiy kuch

⁵⁶ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 377.

⁵⁷ Титмар из Мерзебурга. Хроника. /Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972.стр 102

bilan odatda Gavelland (Gavelya vodiysi) deb atalgan Shtoderaniyga qarab harakatlandi va bu okrugni qilich va olovda yo'q qilib, g'olibona tarzda Magdeburgga qaytadi. Dushman barcha jangchilari bilan Bardengauga tashlandi, lekin biznikilar mutloq g'alabaga erishishdi. Bu jangda qo'lida xochi bilan bayroqdorlardan ham oldinda yurgan yepiskop Ramvard Mindenskiy qatnashdi, u jangchilarni jangga chorladi. Bu kunda graf Gardulf va boshqalar yonib ketdi; dushmanning ko'pchiligi o'z ulushlarini tashlab qochib ketishdi.

Rimda papa Grigoriyning yo'qligidan foydalanib, Kressenskiy uning o'rniga imperatritsa Feofanning yo'ldoshi, Plasensining sobiq yepiskopi Ionn Kalabriyskini qo'yishadi. Kressenskiy shunday hukmronlikka ega ediki, o'z ibodatida hech kimga e'tiqod qilmas, hatto Ottonga ham. Otton bu haqida eshitgan zahotiyoq Rimga shoshildi va yangi Papani huzuriga chaqirtirdi. Biroq uzurpator (hokimiyatni qonunga xilof tarzda tortib olgan shaxs) Ionn qochib ketadi; shunday bo'lsada Xudoga ishongan va imperatorga sodiq kishilar uni tutib olishadi va u tili, ko'zi va burnidan judo qilinadi. Kressenskiy Leonian monastriga badarg'a qilib tashlanadi va uning qirolga qarshi harakatlari zoye ketadi. Otton III Pasxa bayramini Rimda nishonlar ekan, u harbiy qurilmalar qurishga buyruq beradi va oq kunlar (Pasxadan keyingi yetti kun shunday nomlangan) o'tib bo'lgach, markgraf Ekkigardga Teoderix minorasini shturm qilishga buyuradi. Markgraf kunu-tun minoraga hujum qilib, va nihoyat yuqoriga ko'tariluvchi qurilma yordamida uni buzib, ichkariga kirishadi. Keyin Kressenskiy imperatorga qarshi chiqqanligi uchun boshi tanasidan judo qilinadi, keyin esa qatnashchilarning barchasiga ta'sir ko'rsatish uchun u oyog'idan osib qo'yiladi. Papa Grigoriy V katta sharaf bilan o'z tojiga qayta tiklanadi. Shundan so'ng imperator ohirgi vaqtlarda hech qanday qarshiliklarsiz hukmronlik qiladi. (998-yil)⁵⁸.

⁵⁸ История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г. стр 385.

Papa Grigoriy V ning o'limidan so'ng, qirol Rimga sud uchun arxiyepiskop Gizilerni ikki eparxiyani boshqargani, shuningdek Papa nomidan Rimni talab qilganligi uchun chaqiradi. Lekin Giziler zarbaga uchraydi va shaxsan o'zi kela olmaydi, shuning uchun o'zining o'rniga qanday bo'lmasin, o'ziga qo'yilgan barcha ayblardan soqid eta olishi kerak bo'lgan vakilini yuboradi. Ko'rib o'tilayotgan ish toki qirol yepiskoplar tuzemi bilan maslahatlashib olmagunga qadar kechiktiriladi.

1000-yili Xudo azoblangan ruhoniylar Adelbert vositaligida yaratgan (Gnezda) mo'jiza tufayli, u yerga shoshildi. Regensburgda uni katta izzat-ikrom bilan o'sha yerlik yepiskop Gebgard kutib oldi. Qirolni rimlik patriksiy va Papa ruhoniysi bo'lgan Siaso kardinallar hamrohligi bilan kuzatishdi. Hech qachon qirollarga Rimga kelishda ham, yoki ketishlarida ham xuddi o'sha vaqtda Otton III ga ko'rsatilgandek atrofi yorqinlikka boy iltifot ko'rsatishmagan. Seysga kelgan qirol, uchinchi abbat Gugo II tomonidan kutib olindi. U yerdan to'g'ri yo'l bilan Meysenga yo'l oldi. Bu yerda qirolni u ko'p jihatdan ishongan yepiskop Eged va markgraf Ekkigardlar chuqur ehtirom bilan kutib olishdi. Milsinovlar hududiga kelishida, u Dideziza chegarasi atrofi orqali o'tdi. Bu yerda Boleslav kutib oldi va Ilua deb atalgan joyda qirolga ziyofat uyishtirdi⁵⁹. Gersog qirolni ajoyib tarzda kutib oladi va o'z yeridan uni Geznoga kuzatib qo'yadi. Bu hayratlanarli va so'z bilan ifoda etib bo'lmas edi. Ko'rishni orzu qilgan shahrini uzoqdan ko'rgan Otton ibodat bilan unga yaqinlashadi. Mahalliy yepiskop Unger uni kutib olib, cherkovga boshlaydi. Zudlik bilan u yerda o'sha yerlar qarashli bo'lgan katta yepiskopning roziligisiz yepiskoplik tashkil etiladi. Unga keyinchalik Reynber Kolbergs, Popo Krasovsk, Ioann Breslavsk kabi boshqa yepiskopliklar bo'ysunadi.

⁵⁹ Титмар из Мерзебурга. Хроника. /Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972.стр 106

Xulosa

X asr nafaqat Germaniya tarixida balki Yevropa tarixida ham asosiy o'rinni egalladi. Bu davrda yagona birlashgan davlatlarning tashkil topishida xristian talimotining xissasi o'rirliligini aytib o'tish joiz. Aynan X asr feodal siyosiy ta'limotlar tarqalishi va shakllanishi nuqtai nazaridan eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Endi shunday savolni o'z oldimizga qo'ysak? Qanday jihatlar Germaniyaning X asrda G'arbiy Yevropada hukmron holatni egallab, keng tashqi bosqinchilik siyosatini olib borish jarayonida "Muqaddas Rim imperiyasi" tuzilishiga olib kelgan omil nima edi? V. Gizebrext va german qirollarining italyan siyosatini boshqa tarafdorlari bu siyosatning harakatlantiruvchi kuchi universal imperiya g'oyasida deb bilib, bu hududiy parchalangan Germaniyani universal davlat doirasida to'plash bo'lgan deb hisoblaydi.

Bu savolga javob topish uchun ko'proq ikki jihatni hisobga olish kerak. Ulardan biri X XI asrlarda Germaniyaning ichki siyosiy ahvoli va ikkinchisi G'arbiy Yevropada bu davrda murakkablashgan xalqaro vaziyat.

X asrdan Germaniya davlati ko'proq siyosiy jihatdan uyushib, ko'plab qo'shni davlatlar (mas. Fransiya) bilan tashqi siyosiy bosqinchilikda raqobat qilish qudratiga ega bo'lish imkoniyati paydo bo'ldi. Shunday ko'rinishda bularning barchasi Germaniya davlatining ichki siyosiy birlashuviga asos bo'ldi va uning harbiy ustunligini ta'minladi.

O'rta asrlar Germaniyasi davlat taraqqiyotining o'ziga xosligi shundaki, qo'shni mamlakatlarda feodal tarqoqliklar avj olgan paytda (X XI asrlar), u o'zining nisbiy siyosiy birligi va ustun harbiy kuchini saqlab qoldi. Aynan shuning uchun german qirollari amaldorlar madadiga tayanib, bosqinchilik yurishlarini olib bordi va Rim tojiga ega bo'ldilar. Bu yerda shunday savolga to'xtalib o'tish lozimki, "Muqaddas Rim imperiyasi " tashkil topishida qadimgi Rim an'analariga tayanish zaruriyati nimadan kelib chiqdi.

Tarixchilar odatda bu imperiyani turli etnik hududlar birlshuviga qurilgan imperiya deb hisoblashadi. Umuman olganda feodal tayanchlarga asoslangan “Muqaddas Rim imperiyasi” o’z-o’zini boshqargan byurokratik Rim davlatiga o’xshamas edi.

Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi haqida Liutprand batafsil ma’lumot beradi. Uning fikricha Muqaddas Rim imperiyasining tuzilishiga asosiy sabab sifatida Rim an’analari va Buyuk Karl an’anasi asosida yagona german davlatini barpo qilish bo’lgan.

Yuqorida ko’rib o’tilgan manbalarda Muqaddas Rim imperiyasining tuzilishi asoslari to’g’risida birmuncha ma’lumotlarga ega bo’ldik. Xulosa qilib aytish mumkinki, barcha manbalarga faqat Muqaddas Rim imperiyasining tuzish jarayoniga etibor berilib, uning ichki va tashqi omillariga kam etibor berilgan. Masalan Vidukend ko’proq sakson feodallarining sharqiy ekspansiyasi tarafdori mafkurachisi bo’lib, asosiy etiborini Italiya voqealari soyasida qurilgan Saksoniyaning sharqiy siyosatiga e’tibor qaratadi. Italiya voqealari ham uning asaridan joy olgan.

Italiya voqealari ko’proq Liutprand Kremonskiyning “Ajr” va “Otton tarixi” va Rosvitaning “Otton Buyuk haqida doston” asarlarida batafsil ma’lumot keltirilgan.

Muqaddas Rim Imperiyasining Otton III davridagi siyosiy taraqqiyoti haqida Vilgelm Gizebrextning “Nemis imperatorlari tarixi” va Merzeburglik Titmarning yilnomasidan batafsil ma’lumot olishimiz mumkin. Ayniqsa Vilgelm Gizebrextning “Nemis imperatorlari tarixi” asari Otton III ning islohotchilik rejalari haqida batafsil ma’lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, тараққиёт шартлари ва кафолотлари Т:Ўзбекистон. 1997
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., “Шарк” 1998.
3. Каримов И. А. “Ўзбекистон келажаги буюк давлат” –Т.: Ўзбекистон 1993.
4. Видукин Корвейский “Деяния саксов”. Вступительная статья перевод и комментарии. Г.Э. Санчук М. 1975
5. Гизебрехт Вилгельм. “История времени немецких императоров” 1859-1862
6. История средних веков. От Карла Великого до Крестовых походов (768-1096 гг.) Составитель М.М. Стасюлевич. Санкт Петербург. 2001 г
8. Лиутпранд Кремонский “Антаподосис или Воздаяние”/Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972
9. Лиутпранд Кремонский “Отчёт о путешествии в Константинополь или Посольство”/Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972
10. Лиутпранд Кремонский "О деяниях Оттона". Vostlit. info
11. Люблинская А.Д. Источниковедения истории средних веков Л 1955
12. Монахиня Росвита “Панегирике Оттона Великого”. /Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972
13. Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972
14. Росвита “Поема о начале и основателях монастыря Гандерсгеймского” /Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972
15. Проблемы источниковедения западноевропейского средневековья/ Под.ред В.И.Рутенбург. Л.1979
16. Степанова В.Е. и Шевеленко А.Я, сост. История средних веков. Хрестоматия . М. 1974. Ч. 1 (V-XV вв.)
17. Титмар из Мерзебурга. Хроника. /Памятники средневековой латинской литературы X-XII веков /М.1972

18. Хрестоматия по истории средних веков. Раннее средневековье. Под.ред. С.Д. Сказкин. М.1963
19. Хрестоматия по истории средних веков. М.1974. Ч.1 (V-XV^{вв}); 2-е изд М.1981
20. Хрестоматия памятников феодального государства и права стран Европы / Под.ред В.М. Корецкого. М.1961
21. Vostlit. info